

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH FAKULTETI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
Fakultet dekani  
\_\_\_\_\_ f.f.d.

B.Abdushukurov

“\_\_\_\_” - \_\_\_\_\_ 2018-yil

**5111200 - “O'zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lim yo'naliishi IV  
kurs 402-guruh talabasi Norqo'ziyeva Shahnoza Ismoiljonovnaning**

**«Ta’lim bosqichlarida Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish» mavzusida yozilgan**

**B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I**

**Ilmiy rahbar:**

R.Niyozmetova  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori,  
ped.f.d.  
**Taqrizchilar:**

T.Matyoqubova  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi  
dotsenti

G.Raxmonova  
TDIU akademik litseyi  
kafedra mudiri

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri  
f.f.d. \_\_\_\_\_ Z.Mirzayeva  
“\_\_\_\_\_”- \_\_\_\_\_ 2018-yil

**TOSHKENT-2018**

## MUNDARIJA

<b>BMI ning umumiy tavsifi .....</b>	3
<b>I bob. Zulfiya hayoti va ijodini ta’lim bosqichlarida o‘rganish.....</b>	10
1.1. Zulfiya Isroilova she’rlarini o‘rganish xususiyatlari.....	10
1.2. Umumta’lim maktablarida, akademik litseylarda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish.....	24
<b>II bob. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish metodikasi.....</b>	36
2.1. To‘garak mashg‘ulotlarida Zulfiya lirikasini o‘rganish va tahlil qilish.....	36
2.2. Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan tadbir ssenariysini tayyorlash va uyushtirish.....	52
<b>III bob. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuzasidan tajriba-sinov ishlari.....</b>	61
3.1. Zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga tatbiq etish usullari.....	61
3.2. Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan ochiq dars ishlanmasi.....	65
<b>Xulosa.....</b>	79
<b>Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	82

## BMI ning umumiyl tavsifi

**Mavzuning dolzarbliji.** Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo'lmadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarish, shaxsni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, shuningdek, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Ayni paytda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni ongli his etadigan, davrning global masalalari xususida mustaqil fikrlovchi ijtimoiy-ma'naviy faol avlod shakllanmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «...ta'limdan asosiy maqsad bolalarga ilgarigidek bilim berish emas, bilim olishga o'rgatishdir. Bunda o'quvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmay, balki bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak... Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi passiv bo'lishi muqarrar»<sup>1</sup>.

Istiqlol yillarida milliy qadriyatlarga, an'analarimizga, shuningdek, adabiy merosimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yozib qoldirilgan beba ho madaniy merosimizni o'rganish, ularning mazmun-mohiyatini anglash va kitobxonlarga yetkazib berish g'oyatda muhim ahamiyatga egadir. Endilikda buyuk shoirlar ijodini badiiyat nuqtai nazaridan

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997. - 156-bet.

o‘rganish davlat ahamiyatiga molik masala darajasiga ko‘tarildi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Ma’naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda baxt-saodat bo‘lmaydi. Nafaqat ko‘hna tarix, balki yaqin tarix ham buning ko‘plab misollarini beradi”<sup>2</sup>.

Shu o‘rinda adabiyot o‘qitish vazifasiga berilgan ta’rifga diqqat qilaylik: “...adabiyot o‘qitishning oldida oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchi tayyorlash, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning jozibasini his qiladigan, badiiy asarni taniydigan, o‘qigan asarini tahlil eta biladigan va undan o‘ziga xos xulosa chiqarishga qobil, o‘zining qarashlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon va ta’sirli ifoda eta biladigan badiiy asar o‘qishni birinchi hayotiy ehtiyojga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi”<sup>3</sup>. Ta’rifni bejiz keltirmadik. Kishilik tarixidagi mashhur shaxslar, adiblarga emas, siyosatchilar, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha taniqli olimlarning aksariyati bolalikdan badiiy adabiyotga oshno bo‘lganliklari, “badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning jozibasini his qiladigan, badiiy asarni taniydigan” shaxslar bo‘lganligi hech kimga sir emas.

XX asr o‘zbek adabiyotida Cho‘lpon, A.Qodiriy, A.Qahhor, O.Yoqubov, E.Vohidov, A.Oripov singari shoir va yozuvchilar qatorida yuksak is’tedod sohibi shoira Zulfiya asarlari - she’rlari - lirik dostonlari ham akademik litsey hamda umumta’lim maktablari adabiy ta’limida o‘qilib kelinmoqda.

Zulfiya XX asr o‘zbek lirikasining yurik namoyandalaridan biridir. Shoiraning ijod ufqi keng, badiiy mushohadasi o‘tkir, ehtirosi jo‘shqindir. Zulfiya she’riyati hayotbaxsh lirik tuyg‘ularga, yangi-yangi fikrlarga, chuqr g‘oyaviy mazmunga, teran hissiyotga, ajoyib obrazlarga, rang-barang tasviriy vositalarga boydir.

---

<sup>2</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008

<sup>3</sup> Йўлдошев К. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. 1996, 42-бет.

Zulfiya she'riyatida lirika bilan publitsistik ruh o'zaro chambarchas bog'langan. Unda hayotga, insoniyatga, ezgulikka muhabbat tuyg'usi ufurib turadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Zulfiya tavalludining 80-yilligi munosabati bilan unga yo'llagan tabrik xatida shoira ijodiga yuksak baho bergen edi:" Siz zamonamizning zabardast shoiri va jamoat arbobi sifatida O'zbekistonning jarangdor ovozi bo'ldingiz, deb aytsak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Juhon minbarlarida yangragan she'rlaringiz Sharq ayolining aqlu zakosi, fazlu kamolidan noyob nishonadir...Siz latif ijodingiz bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdingiz...

Siz Gulbadanbegim, Zebuniso, Uvaysiy, Nodirabegim kabi Sharqning buyuk fozila ayollari boshlagan an'analarni boyitib, yangi pog'onaga ko'tardingiz. Mehribon va talabchan ustoz Zulfiyaxonimning mahorat maktabidan ko'plab yosh iste'dodlar bahramand bo'ldilar.

Istiqlol ruhi Sizni, ijodingizni yanada yashartirib yubordi. Maftunkor she'riyattingiz yoshlik nafasi bilan qayta uchqunlandi "<sup>4</sup>".

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik va bu oqimga mansub ma'rifatparvarlarning ijodi o'z davrining adabiy-badiiy va ma'rifiy hayotda muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Mavzuning dolzarbliji shundan belgilanadiki, Zulfiyaning hayot va ijod yo'lini yoritish bilan birga asarlarini hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiya asosida yangi dars namunalarini ko'rsatib berishdir.

Shoira ijodiy merosi o'z davridan to shu kungacha adabiyotshunoslar, so'z san'ati ixlosmandlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Zulfiya hayoti va ijodi metodistlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Holbuki, shoira hayoti va ijodini, adabiy merosini o'rganish va unda ilg'or ta'lim texnologiyalaridan, samarali usullardan foydalanish e'tiborga molik bo'lgan

---

<sup>4</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.

vazifalardan biridir. Shoira badiiy mahoratini o‘rganish uning ijodiga xos nozik qirralarini anglashimizga yordam berishi shubhasizdir.

BMIda Zulfiya hayoti va ijodini, uning badiiy mahoratini o‘rganishga, unda ilg‘or metod va texnologiyalarni amaliyatga tatbiq etishga harakat qildik.

### **Tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi:**

Zulfiya hayoti va ijodi haqida N.Karimov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, D.Quronov, R.Qo‘chqorov, U.Hamdam, B.To‘xliyev, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyeva, T.Niyazmetovalar o‘z maqolalari va tadqiqotlarida yetarlicha o‘rganishgan hamda o‘rganilmoqda.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Zulfiya bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning ko‘pchiligi filologiya yo‘nalishida. T. Abdukarimovning “Maktabda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish”<sup>6</sup>, H. Hasanovaning “Maktabda Zulfiya ijodini o‘rganish”<sup>7</sup> nomli uslubiy qo‘llanmalari dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Metodist olima T.Niyazmetovaning “Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish” degan maqolasida<sup>8</sup> 7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, “Umr daftari” deb nomlangan ko‘rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o‘quvchilar e’tiboriga havola etish xususida maslahatlar beradi.

Q.Husanboyaning “Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li”<sup>9</sup> nomli monografiyalarida shoira ijodini o‘rganish yuzasidan ayrim tavsiyalarnigina misol qilishimiz mumkin. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Shuning uchun biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Zulfiya hayoti va ijodini tadqiq etishga harakat qildik.

---

<sup>6</sup> Abdukarimov T. Maktabda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

<sup>7</sup> Hasanova H. Maktabda Zulfiya ijodini o‘rganish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

<sup>8</sup> Niyazmetova T.R. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish // Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10.

<sup>9</sup> Ҳусанбоева Қ. Тахлил – адабиётни англаш йўли.- Т:2013.

**BMI ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasи 2016-2018 – yillarga rejalahtirilgan BMI mavzular bankida aks etgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Zulfiya hayoti va ijodini ta’lim bosqichlarida o‘rganish, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, lirkasini tahlil qilishda samarali metod, usul va texnologiyalarni qo‘llashdan iboratdir.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- Zulfiya hayoti va ijodinining ta’lim bosqichlarida o‘rganish yuzasidan tahlil usullaridan foydalanish;
- Zulfiya ijodiy merosining g‘oyaviy yo‘nalishi va mavzu ko‘lamini o‘rganish;
- shoira lirk qahramoni ruhiy kechinmalar tasvirini tahlil etish va o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etish;
- Zulfiya Isroilovaning dostonnavis sifatidagi faoliyatini tahlil etish orqali o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga o‘rgatish;
- Zulfiya hayoti va ijodinining ta’lim bosqichlarida o‘rganish yuzasidan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etish;
- Zulfiya badiiy mahoratining o‘ziga xos qirralarini tushuntirish;
- mavzu yuzasidan namunaviy ochiq dars ishlanmasi tayyorlash;
- o‘rganilgan metodik muammo yuzasidan xulosalar chiqarish.

### **Tadqiqot obyekti:**

Adabiy ta’lim jarayonida Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish.

**Tadqiqot predmetini** adabiy ta’lim jarayonida tadqiqot talqini va tahlili uchun DTSlari, dastur va darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, yangi pedagogik texnologiyalarning amaliyatga tatbiqi tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari:** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan bilan bog‘liq fikr-qarashlari ushbu BMIning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini yozishda

adabiyotshunos hamda metodist olimlarimizdan N.Karimov, U.Normatov, D.Quronov, R.Qo‘chqorov, B.Nazarov, U.Hamdam, B.To‘xliyev, Q.Yo‘ldoshev, M.Mirqosimova, S.Matjonov, Q.Husanboyeva, T.Niyazmetovalarning ilmiy – metodik maqola va qo‘llanmalariga tayandik.

Ishda sharhlash, izohlash, qiyosiy va tahliliy metodlardan, ilg‘or texnologiyalardan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishimizning ilmiy yangiligi Zulfiya poetik mahoratini ta’lim bosqichlarida o‘rganish usullarini tatqiq qilish ilmiy-metodik tavsiyalar berishida ko‘rinadi. Biz mazkur masalani o‘rganish orqali shoira badiiy mahorati, dunyoqarashining o‘ziga xos qirralari, lirk qahramon ruhiy kechinmalarini yoritish bilan bir qatorda ularni o‘quvchilarga etkazish usul va texnologiyalarini ham yoritishga harakat qildik. Shuningdek, tadqiqotda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dars ishlanmalari va tavsiyalar berildi. Bular Zulfiya san’atkorligining o‘ziga xos jihatlarini anglashimizga yordam berdi. Uzluksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklardan Zulfiya hayoti va ijodiga ajratilgan dars soatlari tahlil etildi. Zulfiya hayoti va ijodini o‘qitishga oid tavsiyalar berildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi Zulfiya she’rlari badiiyatini o‘rganishga bag‘ishlangani ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Uning natijalari kelgusida ta’lim bosqichlarida dars jarayonlari uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

BMIning nazariy xulosalaridan oliy o‘quv yurtlari va akademik litsey hamda kollejlar, umumta’lim maktablari uchun o‘zbek adabiyoti fani bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, metodik tavsiyanomalar tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari va materiallari TDIU akademik litsey o‘quvchilariga “O‘zbek adabiyoti” fanidan dars mashg‘ulotlari o‘tish jarayonida

amaliyotga joriylashtirilgan, ochiq dars o‘tkazilgan (ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

**Ishning tuzilishi va hajmi.**

Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 84 sahifani tashkil etadi.

## **I bob. Zulfiya hayoti va ijodini ta’lim bosqichlarida o‘rganish**

### **1.1. Zulfiya Isroilova she’rlarini o‘rganish xususiyatlari**

Zulfiya XX asr o‘zbek she’riyatining yirik vakillaridan biridir. U o‘zining teran falsafiy, hassos, fojiaviy va hayotbaxsh realistik ijodi bilan hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida yangi sahifa ochdi.

Butun boshli jamiyatda faqat to‘kislik va go‘zallik haqida qalam tebratish urf bo‘lgan bir davrda yashagan shoira Zulfiya ijodida, barcha zamondoshlari singari jamiyat va tabiat go‘zalligini tarannum etuvchi satrlar bisyor. Lekin uning xazinasida umr yo‘ldoshi Hamid Olimjondan ayrilib qolgan davrda qog‘ozga “to‘k”ilgan, “yig‘loqi” degan ta’naga sabab bo‘lgan “dard”lari o‘z samimiyati bilan har qanday o‘quvchini muvozanatdan chiqaradi. Shoira ularda qahramonini she’rxonga tuydira bilgan, uni firoq o‘tida o‘rtangan ma’shuqaning dardlariga chinakamiga sherik bo‘lishiga erisha olgan. Zulfiyaning hijron mavzusida yozgan “Sen qaydasan, yuragim”, “Ne baloga etding mubtalo”, “Sensiz” kabi she’rlari, tabiat go‘zalligini tarannum etuvchi “Oydinda”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda” singari bitiklari, inson taqdiri, hayot tashvishi va quvonchlariga yo‘naltirilgan “Nevara”, “Men o‘tgan umrga”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Lobar qizlarga” singari bir qator ash’orlari u yoki bu davrda umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Adabiyot” darsliklari tarkibidan ham o‘rin olgan.

Ma’lumki, har qanday badiiy asarni, uning badiiyati va mazmun-mohiyati ne chog‘lik kuchli bo‘lmasin darslikka kiritaverish imkonsiz. “Adabiyot” darsliklari uchun tanlangan materiallar adabiy ta’limning maqsadiga xizmat qilishi, tarbiyalanuvchining yoshi, qiziqishlari, psixologiyasi va intellektual imkoniyatlari darajasiga mos bo‘lishi, ayni zamonda o‘quvchini ma’naviy komillik sari etaklashi lozim. Qolaversa, maktab darsliklaridan o‘rin olgan badiiy namunalar maxsus didaktik ashyolar – savol-topshiriqlar ko‘magida tahlilga tortilsagina kutilgan natijani berishi mumkin. Aks holda ular shunchaki axborot sifatida qolib ketaveradi. Badiiy asar asosida tuzilgan savol-topshiriqlar esa shu matn mazmuniga berkitilgan, o‘quvchi diqqati qaratilishi lozim bo‘lgan, e’tibor qilinib

mohiyatiga kirilgandagina uning ma’naviyatida ma’lum iz qoldirishi mumkin bo‘lgan detallarga asoslanishi kerak. Bu “Adabiyot” darsliklari mualliflari zimmasidagi eng murakkab vazifalardan biridir. Muallif, avvalo badiiy matn mazmuniga singdirilgan haqiqatlarni o‘zi ilg‘ashi, ularni o‘quvchining yoshi, intellektual imkoniyatlari darajasidagi savol yoki topshiriqqa aylantirishi kerak bo‘ladi. Bu oson ish emas, albatta.

6-sinf o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan “Adabiyot” darsligida<sup>10</sup> shoira Zulfiyaning “Nevara”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda”, “Men o‘tgan umrga” she’rlari taqdim etilgan. “Zulfiya she’rlari haqida” nomli sal kam to‘rt betlik (umumiylar materialning hajmi, biografik ma’lumot va she’rlar bilan birga etti bet) munosabat esa butun mamlakat o‘quvchilarining shoira Zulfiya ijodi haqidagi fikr-mulohazalarini bir qolipga solishga xizmat qiladi. Ya’ni, darslikdagi mazkur o‘quv materiali xuddi sovet davrida yaratilgan “Adabiyot” darsliklari mazmunidan deyarli farq qilmaydi. Zulfiya she’rlari tahliliga bag‘ishlangan mazkur matnda “Nevara” she’rining mazmuni hikoya qilib berilgan va bu bilan she’rning ta’sir qudrati butunlay yo‘qqa chiqarilgan. Darslikdan o‘rin olgan “Bog‘lar qiyg‘os gulda” she’ri tahlil qilinib, qat’iy xulosalar chiqarib qo‘yilgan. Axir uning tahlili butunlay boshqacha bo‘lishi ham mumkin-ku! Badiiy matnga har bir she’rxon o‘z nazari bilan yondashadi, unda o‘zi istagan narsani ko‘radi, o‘zicha tahlil qiladi. Bu ish zamонавиј тарбияшунослиқ талабларига zid bo‘lib o‘quvchilarni o‘ylamaslikka, o‘zgalarning fikrini ko‘r-ko‘rona takrorlashga o‘rgatib qo‘yadiki, bugun mustaqil mamlakatga, millatga bunday fiksiz tanballarning keragi yo‘q. Shoiraning darslikdan o‘rin olgan “Men o‘tgan umrga” she’ri xususida gapirlarkan, asar matni asosida umumiylar tarzda xulosa chiqarib qo‘ya qolingga. Bir umrni Hamid Olimjonsiz yashab o‘tkizgan shoiraning o‘tgan umriga achinmay qo‘ygani sabablari aralashtirib yuboriilgan. Shoiraning o‘tgan umriga achinmasligi bilan bog‘liq detallar nazardan chetda qolgan. Bu holat o‘quvchilarni ham muhim bilan

---

<sup>10</sup> Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2013.

nomuhimning farqiga bormaslikka, oqibatning sabablarini ko‘rmaslikka o‘rgatib qo‘yishi mumkin. Aslida, “Zulfiya she’rlari haqida” nomli matndagi mulohazalarni, ya’ni o‘quvchilar diqqatini qaratish lozim deb topilgan jihatlarning barchasini savol va topshiriqlarga aylantirib, tarbiyalanuvchilarni har xil yo‘llar bilan shu haqiqatlar sari borishlariga sharoit yaratilganida adabiy ta’limning maqsadiga, ya’ni ma’naviy komillik sari yuz tutgan avlodni tarbiyalash maqsadiga muvofiq ish qilingan bo‘lardi.

Zulfiya ijodi bilan tanishuvga bag‘ishlangan “Rangin tuyg‘ular” mavzusining so‘ngida berilgan savol va topshiriqlarda ham bir oz g‘alizliklar mavjud. Ma’lumki, maktab adabiy ta’limi adabiyotshunos, shoir yoki yozuvchi tayyorlashga emas, ma’naviy komillik sari yuz burgan odam tarbiyasiga qaratilgan. Ertaga vrach, haydovchi, injener-dasturchi yoki bankir bo‘ladigan kelajak avlod uchun asarlarning g‘oyasini topish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib berish yoki o‘quvchining o‘zi ko‘rmagan “Aziz tuyg‘ular” turkumi haqida gapirib berish emas, matnda ifodalangan insoniy tuyg‘ularni his qilish, o‘zgani tuyish asnosida o‘zligini anglash hissini shakllantirish muhimroq. Shakllanib kelayotgan har bir alohida shaxsning ko‘ngliga ma’naviy kamolot sari intilish tushunchasini singdirish zarurroq. Adabiy ta’limning, u ta’limning qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’i nazar va boshqa o‘quv fanlaridan farqli ravishdagi vazifasi mana shulardan iborat. Shu bois darsliklarning didaktik ashyolarini yaratishda adabiy ta’lim vazifalaridan uzoqlashmaslik maqsadga muvofiqdir.

She’riy asar bir kishining – shoirning olamni o‘ziga xos ko‘rishi natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap shu o‘ziga xos qarash va ko‘rishni anglab, his qilib etishda xolos. Ana shu konkret bitta odamga tegishli tuyg‘ular, hissiyotlar ayni paytda butun insoniyatga, hamma odamlarga bir xilda alog‘adorligini anglash she’rni his qilishdagi birinchi qadam, dastlabki odim bo‘ladi.

“She’riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she’r g‘oyasinig mag‘zini chaqish uni o‘qishdan, yanada aniqrog‘i ifodali o‘qishdan boshlanadi”<sup>11</sup>.

Imkonи bo‘lsa, she’riy asarni professional aktyorlar, taniqli so‘z ustalari, o‘rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zulfiyaning maktab “Adabiyot” darsliklaridan o‘rin olgan she’rlaridan bir-ikkitasini tahliliga tortsak. Zulfiya qalamiga mansub “Sen qaydasan, yuragim” she’riy ayriliqda qolgan oshiq dil iztiroblarining eng mukammal ifodasidir. She’rni avval o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qib berishi shart. So‘ngra undagi har bir detalga o‘quvchilarining diqqati qaratiladi, ya’ni savol-topshiriqlar ko‘magida birgalikda tahlil qilinib matn mohiyatiga kirib boriladi. Unda ifodalangan firoq dardi, uning zalvori, ishq qudrati va oshiq iztiroblari birgalikda kashf qilinadi.

She’rning dastlabki bandi tahlil uchun alohida o‘qib eshittiriladi:

*Qalb bo ‘lganda yiroqda*

*Iroda ekan ojiz.*

*Do ‘stlar ham ko ‘p atrofda,*

*Ammo men yakka-yolg ‘iz...*

Shoiraning hayoti haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lgan o‘quvchilar gap nimada ekanini darhol anglaydilar, albatta. Mazkur band mazmuni yuzasidan o‘qituvchining: “**Bunday katta ayriliqda irodaning ojizligini qanday tasavvur qilasiz?**” degan savoli o‘quvchilarini o‘ylashga undaydi. Ma’lumki, o‘lim – har qanday ayriliqdan og‘irroq hodisa. Bu judolikning chorasi ham, oxiri ham yo‘q. Bunday firoqqa mubtalo bo‘lgan oshiqning yagona quroli – sabr. Sabr qilish uchun esa odamga juda katta kuch, qudratli iroda kerak bo‘ladi. Bunday kuchni odam faqat Allohdan so‘rashi mumkin. Tinimsiz mehnat bilan bir oz chalg‘ishi mumkin, albatta. Iroda ojizlik qilganida odam, ko‘pincha alamini yig‘idan oladi. Yig‘i ham odamga bir oz ruhiy madad beradi, ko‘nglini bo‘shatadi. Yig‘i iroda zaifligi

---

<sup>11</sup> To‘xliyev B. Adabiyot o‘qtish metodikasi. –T.: Bayoz, 2010.83- bet.

belgilaridan biri. O‘quvchilar inson irodasi zaifligining yana boshqa belgilarini ham topishlari mumkin. Bu borada o‘qituvchi ularga erk berishi kerak bo‘ladi.

O‘quvchilarning diqqati bandning navbatdagi ikki misrasida ifodalangan qarama-qarshilikka qaratiladi: “**Nega atrofi to‘la do‘sit bo‘la turib ma’shuqa yakka-yozg‘iz? Buni qanday tushunish mumkin?**” Oshiq qalb uchun ma’shuqdan boshqa hammasi bekor. Uni atrofidagi hamkasblar, yor-jo‘ralar, farzandlar, qaridosh-urug‘, qolaversa, ish bir oz chalg‘itishi mumkin. Lekin ko‘ngil o‘z mahramini qumsayveradi, qumsayveradi. Ma’shuqa shuning uchun o‘zini yolg‘iz sezadi. 14-15 yoshli o‘smirlarning ba’zilari bunday tuyg‘uni ilg‘ashlari mumkin, ayrimlari yo‘q, albatta. Lekin, ularning barchasi qahramonni anglashga, uning ruhiy iztiroblarini tuyishga urinib qo‘radilar. Bu adabiy ta’limdagi eng muhim jihat.

O‘qituvchi tarbiyalanuvchilari diqqatini she’rning keyingi misralaridagi “*Birdan qalbim keksarib, Qon ham qochdi yuzimdan*” satrlariga qaratib quyidagi savolni beradi: “**Nima deb o‘ylaysiz odamda shunday holat bo‘lishi mumkinmi? Yoki bu shoiraning she’rdagi mubolag‘asimi?**” Ma’shug‘ini sog‘ingan oshiq qalb uning bu yorug‘ olamda yo‘qligini tuyganida ruhiyatida bo‘shliq, tushkunlik paydo bo‘lishi tabiiy. SHunday vaziyatga tushib qolgan ma’shuqaning xayolan oshiq izidan ketishi, u bilan suhbatlashgisi kelishi, aytajak so‘zlarining, xasratlarining ko‘pligi – yig‘ilib qolgani, dildosh, hamfikr do‘stga muhtojlik tasviri juda ham samimi, rost. Ruhan shunday holatda bo‘lgan odam shodlik va baxtni kuylashi mahol. Lekin jamiyat undan boshqacha kuylashni talab qilgan: “*Yig‘laysan deb do‘sstarim Ta’na qilar. Netay men?*” O‘qituvchi shu satrlarni o‘qib berib: “SHoira yig‘lamasligi mumkinmidi?” degan savolni o‘rtaga tashlashi mumkin. Bu juda jo‘n va birgina “yo‘q” degan so‘z bilan javob berish mumkin bo‘lgan savoldek tuyuladi. O‘sha “yo‘q”ni asoslash talab qilinsa, ya’ni “Nega shunday deb o‘ylaysiz?” degan yordamchi savol o‘rtaga tashlansa, o‘quvchilar o‘ylanib qolishlari tabiiy. Adabiy ta’limda fikr aytishdan ko‘ra uni asoslash muhimroq sanaladi. Shu tariqa millatning shakllanib kelayotgan yosh

avlodini fikrlashga, o‘zgani his qilishga, shu orqali o‘zligini anglashga o‘rgatib boriladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarining e’tibori keyingi banddagi dastlabki ikki misraga qaratiladi: “**Nima deb o‘ylaysiz, “Sovush bermaydi menga YOqib ketganing olov” misralarida qanday olov haqida so‘z borayotir?**” Muhabbat atalmish tuyg‘u haqida u yoki bu darajada tasavvurga ega bo‘lgan o‘smirlar o‘ylab ham o‘tirmay javob beradilar, albatta. Lekin, bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi tarbiyalanuvchilari e’tiborini ishq atalmish tuyg‘uning darjasи va qudratiga qaratishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilar shoiraning iztiroblarini, ko‘ngidan kechayotgan og‘riqlarni his qilishga urinib ko‘rishlari o‘rinli bo‘ladi. Har holda o‘qituvchi ularni shunga yo‘naltirishi kerak. Bu satrlar shunchaki so‘zlar majmuasi emas, balki oshiq ko‘ngilning qog‘ozga to‘kilgan dardi ekanini anglatishga urinib ko‘rishi maqsadga muvofiqdir. Shu bandning keyingi ikki misrasida o‘rtaga tashlangan “o‘lim” deb atalmish g‘ovning qanchalar alamli ekani, ayni zamonda u ma’shuqaning o‘z oshig‘i bilan birlashish uchun yagona yo‘l ekani o‘quvchilarining ko‘nglini larzaga solishi mumkin. Faqat buni ularga shunday anglata bilish o‘qituvchining vazifasi. SHu tariqa o‘quvchilar so‘z qudratini, uning inson hayotidagi o‘rnini bir chimdim-bir chimdimdan tuyib boradilar.

Oxirgi bandning:

*Ishqqa maskan yuragim,*

*Topib ber deb qistaydi.*

*Nima qilay, berahm —*

*Ruhim seni istaydi*

so‘nggi ikki misrasida qo‘llanilgan “berahm” so‘zi kimga yoki nimaga qaratilganiga ham o‘quvchilarining diqqatini tortish o‘rinli bo‘ladi. Bu masala ustida ishlaganda o‘quvchilarining diqqati ham shaklga, ham mazmunga qaratiladi. Kimdir uni oshiqqa qaratilgan deyishi, uning undalma vazifasini bajarayotganini, bunda “nima qilay”dan keyingi vergulga asoslanish mumkinligini aytishi, yana

kimdir “berahm”dan keyingi tirega tayanib uni ruhga daxldor ekanini isbotlashga urinishi tabiiy. Har ikki holatda ham o‘quvchilarning o‘z xulosalarini asoslash uchun topgan dalillari muhim. Agar bu borada fikr aytisholmasa, bu masalani ochiq qoldirgan, keyingi darsgacha o‘ylab ko‘rish, uyda kattalar bilan maslahatlashib boqish topshirig‘ini berish lozim. Hech qachon o‘qituvchi o‘z fikrini aytib berishi mumkin emas. O‘quvchiga kashf etish, o‘z kashfiyotidan lazzatlanish imkoniyatini berish kerak. Bu uni yangi-yangi kashfiyotlar sari etaklaydi. Bu odamga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat bo‘lib u insonni yuqoriga etaklaydi. O‘qituvchining vazifasi ham shu emasmi!?

Endi yuqoridagi darslikdan o‘rin olgan “Men o‘tgan umrga” she’ri xususida ikki og‘iz so‘z. Darslikda mazkur she’rga daxldor birgina: “Men o‘tgan umrga” she’ridagi lirik kayfiyatni qanday izohlagan bo‘lar edingiz?” degan savol berilgan xolos. Hamon biror badiiy matn darslikka kiritildimi, o‘qituvchi-o‘quvchilar uning matni ustida ishslashlari kerak. Darslikda buning uchun zarur bo‘lgan didaktik ashyolar keltirilgan bo‘lishi shart. “Adabiyot” darsligiga badiiy matn shunchaki xabardor qilib qo‘yish uchun kiritilmaydi. Asar tahlilga tortilib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar hamkorligida uning mohiyatiga kirilmas ekan u kitob sahifalarida shundog‘icha qolib ketaveradi. “Men o‘tgan umrga...” she’rining bitta taxminiy tahlili quyidagicha.

O‘qituvchi avval she’rni o‘zi ifodali qilib o‘qib beradi:

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,*

*Men o‘tgan umrga achinmay qo ‘ydim.*

*Tabassum o‘rnida kuldim charaqlab,*

*Suyish kerak bo‘lsa – telbacha suydim.*

*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,*

*YUrak boyligidan qilmabman parvo.*

*Meni og‘ushlagan hayot naq oftob,*

*YAngi qo‘shiq talab unda har saboh.*

*Men o ‘tgan umrga achinmay qo ‘ydim,  
 Hech kimda ko ‘rmayman umrimga o ‘xshash:  
 Suydim,  
 Erkalandim,  
 Ayrildim,  
 Kuydim.  
 Izzat nima bildim.  
 Shu-da, bir yashash!<sup>12</sup>*

So‘ngra o‘quvchilari e’tiborini birinchi bandning keyingi ikki misrasi: “*Tabassum o ‘rnida kuldim charaqlab, Suyish kerak bo ‘lsa – telbacha suydim*” ga qaratiladi va “**Shu satrlar mazmuniga tayanib shoiraning o‘tgan umriga achinmay qo‘ygani sabablarini aniqlang**” topshirig‘ini beradi. Gap shundaki, o‘quvchilar darslikdagi shoira Zulfiya haqidagi biograqik matndan o‘qib bilganlari qanchalik haqiqat ekanini o‘zlari uning bitiklariga asoslangan holda anglab etishlari kerak. Odamning yozganlari, ko‘pincha uning shaxsiyatini ochib beradi. Faqat she’rxon yozilganlarning mohiyatiga kira bilish kerak. O‘quvchini bunga to‘g‘ri tashkil qilingan adabiyot darslari o‘rgatadi. Ma’lumki, insonga Alloh tomonidan berilgan ne’matlarning eng oliysi – sevish-sevilish. Hayot ne’matlaridan imkon qadar ko‘proq lazzatlanib yashash. She’r muallifi bir inson sifatida har ikkisiga ham munosib topilgan. “*Tabassum o ‘rnida charaqlab*” kula oladigan darajada baxtli bo‘lgan, majnunsifat sevgan, shunga yarasha sevilgan. Hayotida baxtdan mast bo‘lib yashagan inson uchun moddiy narsalarning ko‘pda ahamiyati yo‘q. Shaxsiy hayotdagi ma’naviy to‘kislik va baxt mahsuli o‘laroq u har tongda insoniyatga yangi qo‘shiq hadya etib yashadi.

**“Shoira Zulfiyaning bir inson sifatida yurtida kamol topgani, dunyoga tanilgani, elning nazariga tushgani she’rdagi qaysi satrlarda ko‘zga tashlanadi?”** degan savol o‘quvchilarning diqqatini yana she’rga qaratishga majbur qiladi. Unga javobni she’rning ikkinchi bandidan topishlari mumkin. Lekin

---

<sup>12</sup> Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. .-T: Sharq, 2006. 94-bet.

she'r mazmunidan kelib chiqib beriladigan: “**Muallifning o'tgan umriga achinmasligi sabablari qaysi so'zlarda aks etgan?** Sanalgan har bir tushunchaning mohiyatiga kirishga urinib ko'ring. Unda ilgari surilgan **qarashlarni shoira hayotidan misollar keltirib asoslashga harakat qiling**” kabi savol-topshiriqlar o‘quvchilarga uning mohiyatini ochishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar matndagi “*Suydim, Erkalandim, Ayrildim, Kuydim. Izzat nima bildim*”ni sanab ajratadilar. Shoiraning hayotidan kelib chiqib ularning har biriga o‘z tushunchalari doirasida izoh beradilar. Shu asnoda matnning mohiyatiga kiradilar, insonni, uning dardu shodliklarini anglaydilar. Shoiraning xulosalariga tayanib inson umridagi muhim jihatlarni farqlaydilar.

Zulfiya qator dostonlar yaratdi. Uning «Uni Farhod der edilar», «Quyoshli qalam», «Xotiram siniqlari» kabi dostonlari shoira dunyoqarashining kengaygani, turmush tajribalarining ortgani, tuyg‘u va fikrlarining teranlashganini yaqqol ko‘rsatib turadi.

«Quyoshli qalam» dostonini o‘zbek adabiyotining zabardast adibi Oybekka (xotirasiga) bag‘ishladi. Unda imkon qadar shoir ruhiy olamini ochib berishga intildi.

Zulfiya uzoq umr ko‘rdi. «Xotiram siniqlari» dostonida aytganidek:

Hurriyat keldingmi, nahotki kelding,

Kelar yo‘llaringda pinhona toldim.

Mening ota-onam, jon Vatanimda,

Elim taqdirida abadiy qolding

U baxtli zamonamizni-Vatanimiz Mustaqilligini ko‘rishga muyassar bo‘ldi, xalqimiz boshidan o‘tgan dardu jafolar ortda qolganidan shukronalar aytди.

Uning she’riyati xalqimizning ruhiy-ma’naviy olamini boyitishga ko‘maklashaveradi.

«O‘ylar» to‘plamim bosilib chiqqanda, adabiyotchi do‘stlarimdan biri menga «She’rlaringizni tushunish qiyin bo‘lib ketayapti», dedi. Bu gap meni juda tashvishga soldi. Kitobda o‘zim uchun allaqanday bir yangilik zuhur bo‘lganini

sezardim. Lekin aybga qo'shilmasinu, buni o'z nazarimda, orqaga qarab qaytish emas, mahoratda bir pog'ona ko'tarilish, deb bilardim. Men hadeb ishlatilaveradigan bir qator: nisbatlar, sifatlar, istioralardan — adabiyotshunoslar «an'anaviy obrazlar» deb ataganlari — narsalardan qochishga uringan edim, har bir she'r uchun, agar ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga yarasha istioralar ixchamgina iqlimini yaratib, uni mavzuning shu she'rdagi yo'nalishi, shu she'rdagi hissiy kayfiyat bilan bog'lashga intilgandim. Tushunish qiyin degan gap siyqa iboralardan nariroq turganimdan kelib chiqdimi?

... Bu kitobga kirgan she'rlarimning ko'pchiligi ancha murakkabroq ko'ringan bo'lsa, mening she'rga ko'proq mag'izbaxsh obrazlar orqali fikrni ifoda etishga erisha olganimdandir. Albatta, bu she'rlarning hammasini ham minbar she'rlari, deb bo'lmaydi. Zotan, she'rni har mahal ham minbar atrofida yig'iladigan she'rxonga atab yozmaymiz-ku».

Chindan ham shoiraning 80—90-yillar she'riyati «mag'izbaxsh obraz» larga boyligi, fikriy teranligi, falsafiy yo'nalishi bilan ajralib turadi va o'z-o'zidan sinchkov, serfikr va haqiqiy she'r shinavandasiga sehr eshigini lang ochib beradi., Mana bu «Shoshma, hali!» she'ridan keltirilgan parada tashqi tomonidan «murakkab», kutilmagan obrazlar, she'rga «yot» tushunchalar ishlatilgan, ammo u iztirobga tushgan, kuyib-yongan qayab holatini to'la, tiniq aks ettiradi:

*Goho ziq, zich,  
Goho qo 'rsiz kunduzimning, .  
Yo uyqusiz tunlarimning  
Uvadasi yig 'indisi—asablarim  
Shu qurtsimon*

*Boshdan-oyoq birday qamrab  
Yuragimni tishlay boshlar.  
Bu azobga tob bermoqqa urinaman,*

*Urinaman,, to 'lg 'onaman.*

*Miyamdag'i bitta sanchiq,*

*Usta qoqqan mixday mahkam.*

"Shoiraning «Yillar», «O, ertam, eng go'zal afsonam», «Men bo'lmasam» kabi o'nlab she'rlari, ayniqla, so'nggi yillardagi she'rlari shu yo'nalishda bitilgandir.

Zulfiya she'rlarining ixchamligi bejiz emas. Bu ham shoiraning so'z zimmasiga katta fikr, his-hayajon yuklay olganining natijasidir. Agar fikr va kechinmaning yangi jihatlari ko'rinish qolsa, u mustaqil, ammo mazmunan, ruhan o'zaro bog'langan bir necha she'r yaratadi. Zulfiya ijodidagi turkum she'rlar shu tarzda tug'ilgan. Shoir dostonchilikni u qadar xush ko'rmaydi. «Ammo doston janri, har qalay, menga nobop ko'rindi, -degandi u. — Men bu janrni xush ko'rmayman, uning kelajagiga ko'p ishonmayman. Shakl ixchamligi va ixchamroq shaklga joylashpsh fikrning rangdorligi menga ko'proq yoqadi. Tuyg'ular toshqinligi va fikrlar teranligi bir-biriga muvofiq bo'lishi kerak. Bu narsa she'rda oson hal bo'ladi. Dostonlarim shuning uchun ham kichkina, ular ko'proq-uzun she'rlarga o'xshab ketadi».

Zulfiyaning «Uni Farhod der edilar», «Quyoshli qalam», «Xotiram siniqlari» dostonlari chindan ham juda ixcham. Shoiraning dostonchilikdagi tajribalari va bu janrning kelajagiga u qadar ishon masligi zamirida haqiqat borga o'xshaydi. Nasr, dramaturgiya, kino, televide niye rivojlangan hozirgi zamonda doston imkoniyati chegaralangandek tuyuladi. Albatta, hamma gap ijodkorning xohish va mahoratiga bog'liq. Baribir, hozirgi zamon jahon she'riyati tajribasida, meningcha, dostonchilqda kashfiyat qilishga urinish va erishish sezilayotgani yo'q.

Zulfiya «chop etilgan she'rlarimda qalbimdag'i quvonch, dard, hayajonlarimning suvratini ko'rganday bo'laman», degandi. Bu haqqoni y e'tirofdir.

Zulfiya she'riyati teran fikr bilan jo'shqin hissiyot uyg'unligidan hosil bo'lgan, demak, intellektual va psixologik she'riyat. U tahliliy, falsafiy, o'ychan, ayni chog'da aniq manzarali. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o'tkir dramatik holatni ham, dramatizmning cho'qqisidir. Unda vaqt va makon qamrovi keng, yaxlit. Ijodida xotira, taqdirdosh, yuragiga yaqin kishilar, kelajak ohanglarining barqarorligi shundan.

«Men she'rلаримнинг бир мавзу атрофидаги чекланыб оғолышини истамайман», деганди Zulfiya. Униг лираси чиндан хам коп овозли. Бу охангларинг энг муҳими ва жарандорини бахтийорлик ва хижон, г'ам-фоjeиyl иккаки ташкил этиди:

*Ma'yusi ham, yorqini ham bor,  
Tuproq, hayot, yurak bu axir, —*

деди у.

«Сен тоқ емас — иккторли соз, коп шанотла қиласан парвоз». Бу ерда Zulfiya H. Olimjonninggina емас, аслада о'зининг ижодий принципини наазарда тутоқда. H. Olimjon бахт ва шодлик күччиси edi, шунинг учун униг she'riyatida ko'tarinkи руҳ етакчилик қилинди. Zulfiya шу руҳдаги she'rлар хам ўзди, лирасининг бир қаноти шу. Иккичиси — воqelikni butun ziddiyatlari, fojeiy tomonlarini ko'rsatish orqali inson qudratini, qahramonlikni ulug'lashdir.

Zulfiya she'riyatidagi fojiaviylikni keltirib chiqargan va chuqurlashtirgan асос esa, униг tarjimai holiga bog'liq va fojeiy охангнинг устунлиги shoira she'rларida yana bir o'ziga xoslikni — voqeaviylikni, ixcham syujetlilikni» keltirib chiqargan. Zulfiya: «Nazаримда shoirlar o'z tarjimai hollarini yozmasliklari joiz. Negaki, shoirlar haqida liderlari tafsif beradi, ular haqida hamma narsani aytib bermasa ham ijodlarida hayotlarining ko'pchilik tomonlarini sharh etib berishga qodir she'rлар bo'ladi»<sup>13</sup>, — deb ўзган edi.

Shoirning ташқи dunyoga munosabatining ifodasi lirikaning tub fazilati ekan, ана шу munosabat shoirning fikri, his-tuyg'улари, kechinmalari orqali ifodalananar

---

<sup>13</sup> Kattabekov A. va b. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: O'qituvchi, 1990. 359-bet.

ekan, har bir misrani yurak qoni va aql chirog‘i bilan yozar ekan, demak, bunga ijodkor qalbi, tarjimai holining lavhalari, xulosalari qo‘silmasdan iloji yo‘q. Ammo shoirlar «dunyo hodisalari bilan birikib ketishda» (Gegel), O‘ziniki bilan o‘zganikini ifodalash usulida, prinsipida bir-biridan farq qiladi. Zulfiya tashqi olamdagি rang-barang hodisalarning, fikr, orzu-ideallarning o‘z ruhiga, o‘z dunyoqarashiga, tarjimai holiga hamohanglarini ko‘radi va shu tashqi olamni, o‘zgalarnikini o‘zinikiga qo‘sib, uyg‘unlashtirib yuboradi.

U «Urush yillari, — deydi Zulfiya, — turmushning o‘zi qat’iyat bilan haqiqiy so‘z talab qildi; beixtiyor ravishdami yoki birovning tajribasiga murojaat qilish natijasidami, asl so‘zlar o‘z-o‘zidan quyilib kelaverganidan keyin ularni o‘rni-o‘rniga joylashtirish, bir-biri bilan bog‘lash yo‘lini topar ekansan... 1943 yilda chiqqan «Hulkar» kitobim yangi ishning yakuni bo‘ldi. She’rlarim voqeaband bo‘lib qoldi, desammikan? Lekin bayonchilik ma’nosida emas. Men bu she’rlarga o‘z ruhiy tariximning bir parchasini joylashtira boshladim, bu parchaning o‘z tuguni, kulminatsiyasi va echimi bor edi. Endi yozmoq uchun, Lev Tolstoy aytganidek, dastlab gapning uchini uchiga ulab olishim kerak edi. She’rni boshlab qo‘yib, oxirini topmagunimcha uni davom ettira olmas edim. Endilikda qayoqqa qarab ketayotganligimni bilganimdan yo‘lning eng qisqasini izlab topa olardim. Natijada she’rlarim muxtasar va tugal bo‘la boshladi».

Zulfiya she’rlariga xuddi shu «o‘z ruhiy tarixining bir parchasini joylashtira boshlashi»dan ijodida ko‘tarilish yuz berdi. Chunki Ibsen so‘zlari bilan aytganda, «boshdan kechirmoq bilan yashamoqni bir-biridan aniq farqlamoq kerak, faqat

birinchisigina ijod manbai bo‘lib xizmat qiladi»<sup>14</sup>. Shoira ana shu boshidan kechirganini, hayotiy tajribalarini, ruhiy, hissiy holatlarini, qalb zarblarini berish, tahlil etish orqali keng olamga va kishilarning qalbiga chuqur kirib bordi. Bu, ayniqsa, H. Olimjonning fojiali taqdiri munosabati bilan hijron haqidagi she’rlarida yaqqol sezildi. U H. Olimjon hayot vaqtidayoq shoira ijodiga hijron ohangi kirib

---

<sup>14</sup> Kattabekov A. va b. O‘zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent, O‘qituvchi, 1990.361-bet.

keldi. Bu ohang «Hijron» she’rida, «Uni Farhod der edilar» dostonida, H. Olimjon tomonidan tahrir qilinib bosmaga tushirilgan «Hijron kunlarida» she’riy to‘plamida muhim o‘rin tutdi.

Zulfiya XX asr o‘zbek lirikasining yurik namoyandalaridan biridir. Shoiraning ijod ufqi keng, badiiy mushohadasi o‘tkir, ehtirosi jo‘shqindir. Zulfiya she’riyati hayotbaxsh lirik tuyg‘ularga, yangi-yangi fikrlarga, chuqr g‘oyaviy mazmunga, teran hissiyatga, ajoyib obrazlarga, rang-barang tasviriy vositalarga boydir.

Zulfiya she’riyatida lirika bilan publitsistik ruh o‘zaro chambarchas bog‘langan. Unda hayotga, insoniyatga, ezgulikka muhabbat tuyg‘usi ufurib turadi.

Iste’dodining qudrati tufayligina muhabbat haqida yozmagan, balki qalbini o‘rtagan shaxsiy fojiasining iskanjasidan chiqmoq, har kuni tortayotgan hijron azoblarini o‘zgalar bilan o‘rtoqlashmoq maqsadida qalam surgan shoira Zulfiyaning she’rlari o‘quvchilar tomonidan sevib o‘qib kelinmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklarida Zulfiya hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga e’tibor berilgan, shoiraning yuksak badiiyat namunasi bo‘lgan she’rlaridan namunalar keltirilgan. Istardikki, kelajakda yaratiladigan dasturlarda shoira ijodiga ajratilgan dars soatlari yanada kengaytirilsa, darslik va majmualarda keltiriladigan she’rlarining miqdori ko‘paytirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Zulfiya keyingi davrlarda oila va burch, axloq-odob, yoshlik va shodlik, vijdon va imon, ishq-muhabbat, sadoqat va xiyonat kabi mavzularda ham chuqr mazmunli yorqin she’rlar yaratdi. Shoira bu she’rlarida hayotdagi va kishilar ongidagi kelajagi porloq xususiyatlarni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ayrim salbiy voqeа-hodisa va illatlarni tanqid qiladi.

O‘quvchilarga uy vazifasini bir necha variantda taqdim etgan ma’qul. Masalan, ba’zi o‘quvchilar uning she’rlaridan istaganini yod olishsin, ayrimlari

“Shoira bilan g‘oyibdan suhbat” uyushtirishsin, kimdir uning she’rlariga taqriz yozsin, yana birovi “Zulfiya mening taqdirimda” mavzusida insho yozsin. Boshqasi uyda mazkur mavzu bo‘yicha nima qilishni o‘zi tanlasin. Xullas, shoira Zulfiya ijodini o‘rganish har bir o‘quvchining qalbida, ong-shuurida qandaydir iz qoldirsin. Darslikdan o‘rin olgan boshqa she’rlarni ham shu tariqa tahlilga tortish adabiy ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

## **1.2. Umumta’lim maktablarida, akademik litseylarda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish**

So‘z san’atkorlari o‘z xalqining elchisidir. Ular inson fazilatlarini, orzu-armonlarini o‘z o‘quvchisiga, o‘z muxlislariga, kelajak avlodlarga etkazib beradilar.O‘zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya ham ana shu toifaga kiruvchi ijodkorlardan biridir.

Chunki, uning sermazmun sh’riyatida xilma-xil hayotiy, insoniy tuyg‘ular, fikrlar, g‘oyalar ifodalanadi. Shu bois, uning she’riyati o‘z muxlislarini rom etib kelgan. Ayniqsa, maktab o‘quvchilari bu shoiraning nomini yaxshi bilishadi. 6-sinf darsligidagi Zulfiya haqidagi mavzu ularni yana shoira haqidagi taassurotlarini kengaytirishda katta ahamiyatga egadir. Bu mavzuga ajratilgan vaqt 2 soatni tashkil etgan bo‘lib, shoira haqidagi ma’lumotga uning ayrim she’rlarining tahiiliga bag‘ishlangan.

Ajratilgan vaqt qisqaligini inobatga olib, mashg‘ulotni o‘quvchilarning shoira haqidagi mustaqil ma’lumotlarini aniqlash orqali,qisqacha tarjimayi holi haqida ma’lumot berishi mumkin.

Ma’lumki, shoira haqida televideniyada ko‘rsatuвлar namoyish qilingan. Suratlari asosida foto albomlar yaratilgan. Dastlabki suhbatni ko‘rgazmali quollar asosida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Chunki o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, vaqtini iqtisod qilish imkonini beradi. Suhbat orasida Zulfiyaning o‘zi yozgan «Hayot varaqlari» nomli xotirasidan parchalar o‘qib berish orqali shoiraning tarjimayi holi haqida ma’lumot berish mumkin.

Zulfiya o‘z xotirasini «Mening bolaligim... Toshkentning mahallalaridan birida o‘tgan» - deb boshlaydi. Shundan so‘ng, bolalik davrining eng muhim o‘rinlariga, xususan uning hayotida o‘chmas iz qoldirgan onasi haqida so‘z yuritadi. Otasi haqida, akalari haqida, ular bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari haqidagi xotiralarini ta’sirli hikoya qiladi, o‘z mehr-muhabbatini, hurmatini bayon qiladi. Bu ma’lumotlar shoiraning yuksak ma’naviy siyemosini ochib berishi bilan muhim ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda uning qanday oilaviy sharoitda tarbiyalanganligini o‘quvchilar bilib oladilar. Zulfiya bilim yurtiga o‘qishga kirkach, hayotining boshqa sahifasiga duch kelganligini hikoya qiladi. Hayotning bu sahifasi esa, u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bog‘liq, o‘sha davra yollarining taqdirlari bilan bog‘liq lavhalardan iboratdir<sup>15</sup>.

Shoiraning 6-sinf darsligiga kiritilgan she’rlarining yaratilish tarixi bilan bog‘liq lavhalarni ham o‘z xotirasida ishora qilib o‘tadi. Ma’lumki, shoiraning «Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so‘roqlab» kabi she’rlari, ustoz, do‘sti, umr yo‘ldoshi Hamid Olimjon xotirasiga bag‘ishlan-gandir. Zulfiya o‘z xotirasida mazkur she’rlarning yaratilish tarixini ochib beruvchi muhim mulohazalarni keltiradi. U «Hamid Olimjon mening uchun talabchan ustoz, mehrali do‘st edi. She’rlarimni ilk bor hayajondan titrab unga o‘qirdim. U ayovsiz tahrir etardi. Yillar o‘tdi, yillarning biri bilan qo‘shilib, Hamid Olimjon ham ketdi. Endi men satrlarimga uning nigohi bilan qarashga o‘rgandim» - (qarang: «Hayot varaqlari») deya hikoya qiladi. Zulfiya o‘z xotirasida yillarni, sanalarni keltirmaydi. Bu ma’lumotlami dars jarayonida, «Zulfiya hayoti va ijodida muhim sanalar» nomli jadval asosidagi ko‘rgazmali qurol bilan o‘quvchilarni tanishtirish mumkin. Yoki Zulfiya ijodini mактабда o‘rganish bilan bog‘liq uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish lozim<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> S.Ahmedov va b.Adabiyot. 6-sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: Ma’naviyat, 2005. 127 –bet.

<sup>16</sup> Т. Абдукаrimov. Мактабда Зулфия ҳаёти ва ижодини ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978; X. Ҳасанова. Мактабда Зулфия ижодини ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Зулфия. Куйларим сизга. –Тошкент, 1965.

Akademik litseylarning uchinchi bosqichida<sup>17</sup> Zulfiyaning «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri o‘rganiladi. She’r faqat hijron ohanglaridan iborat bo‘may, balki bahor tasvirini ifodalovchi, qahramonlar kayfiyatini, shu fasl bilan bog‘lovchi she’rlar sirasiga kiradi.

Shoiraning mazkur she’rining tahlili jarayonida, o‘quvchilar diqqatini bahor tasviriga jalb etish, ularda bahorning fazilati, uning ziynati, bu faslda tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlar kabi tushunchalarni anglatish she’rning badiiy tahlilini anglab etishga imkon beradi. Bahor haqida tasavvurga ega bo‘lgach, she’rdagi «.. .bodom guli», «.. ,o‘rik gullari»,«.. ,uyg‘ongan kurlak», «.. yashil qirg‘oqlar»,«.. .gullar g‘unchasini etdi chok-chok»,«... bahor kuychisi Hamid Olimjon» kabi badiiy tasvir vositalarini kellirish bilan she’r tahliliga o‘tish mumkin. She’r bahor tasviri bilan boshlanadi.

Salqin saharlarda bodom gulida,  
Binalsha labida, erlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, ellaming nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Bu tasvir o‘quvchilarda bahor singari tozarish, yangilanish, uyg‘onish kabi tuyg‘ularni uyg‘otadi. Keyingi misralarda esa keskin burilish hosil qilib, bahor kuychisini, shaydosini qo‘msash tuyg‘usini hosil qiladi. Beixtiyor bahor qidirgan shoir Hamid Olimjon siymosi o‘quvchi ko‘zi oldida gavdalanadi, chunki u ham bahorni sevar edi. Har bahorni quvonch bilan kutib olar edi.

Shoira keyingi misralarda intoq va tashxis «jonlantirish» san’atini mahorat bilan qo‘llaydi. Bahorga inson xususiyatlarini ko‘chiradi, uni so‘zlatadi, hayajonlantiradi.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,

---

<sup>17</sup> To‘xliyev B. va b.. Adabiyot (majmua) Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. - T.: Bayoz, 2014.

Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So'ogra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,

Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.

Qishning yoqasidan tutib so'raydi.

«Toqatlari toq» «bahor shoira yotog'iga kiradi, Hulkar va Omonning yuzidan o'padi». Shoirni u erdan ham topmagach, «sarsari kezib» shoirani so'roqqa tutadi. Hamid Olimjonning fe'l-atvorini, qiyofasini bahor tilidan bayon etadi. Qarshilantirish usuli bahor tasviri bilan lirk qahramonning ruhiyatini bayon etadi. Ayriliq azobini his etgan bahor tabiatni larzaga keltiradi, qishning yoqasidan tutib so'raydi.

Shoirni topmagach, sabr bardoshi tugab bo'ronga aylanadi, «Soylarga qulatadi tog'lar toshini». She'r shoiraning sadoqati ifodalangan satrlar bilan yanada go'zal mazmun kasb etadi. U tushida ham, o'ngida ham bir daqiqa unutmaydi, usiz «nafas olmaydi», hijron alamini qalbida saqlab, shoir tugata olmagan ijod sahifalarini davom ettirajagini alam bilan so'zlaydi. She'r hayajonli satrlar bilan yakunlanadi.

Ma'lumki, shoiraning bu she'ri ko'plab she'riyat muxlislarining e'tiborini tortgan va yuksak baho bergenlar.

Mavzuni yakunlash jarayonida mazkur she'rga yuksak baho bergen Erkin Vohidovning quyidagi so'zlarini o'quvchilarga o'qib berish mumkin. «She'riyatimizning hech bir shubhasiz eng nodir durdonalari qatoridan o'rin olgan» deya haq gapni aytgan edi E. Vohidov.

Shoiraning «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh» she'ri ham hijron mavzusidagi she'rlardan biri bo'lib, shoiraning Hamid Olimjon bilan birga o'tgan baxtiyor damlarini ifodalaydi. Shoiraning mazkur she'rining tahlili bilan o'quvchilarni tanishtirishda quyidagi misol bilan mashg'uIotni boshlash maqsadga muvofikdir.

Ma'lumki, Hamid Olimjon bahorni, gullarni, tabiatni seuvuchchi shoir bo'lgan. Uning «Eng gullagan yoshlik chog'imda» she'rining yaratilishi bahor va gul

tasviri bilan bog‘liq. Oshiq shoir bahorda lolazor qirda quchoq-quchoq gullar terib Zulfiyaga taqdim etganligi tufayli mazkur she’r yozilgan. O‘quvchilarga mana shu H. Olimjonning she’rini o‘qib bergach, Zulfiyaning «Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh» she’rining tahliliga o‘tsa, she’rning g‘oyaviy mazmuni yanada oydinlashadi.

Shoira she’rda Hamid Olimjonning unga tirikligida hadya etgan gullarini xotirlaydi.

Sog‘ inganda izlab bir nishon,  
Qabring tomon olar edim yo‘1.  
Keltirarding menga bir zamon,  
Endi har chog‘ men eltaman gul.

Shafqatsiz taqdir tufayli, endi Zulfiya uning qabriga gul eltadi. Shoir qabriga kelgan motamsaro ayol iztirob chekadi. Uning bu holatini go‘yo ko‘kda uni kuzatib turgan parcha bulut uning dardiga hamdard bo‘ladi. U ham lirik qahramonning yonida turib duv-duv ko‘z yoshi to‘kadi. Ammo, shoir bosh ko‘tarmaydi. Bu holdan ranjiganday, undan gina qilganday, baxtiyor damlarda ko‘zyoshi to‘kmaganligini iztirob bilan bayon qiladi.

Biz yig‘ladik tepangda shu kun,  
Keldingmi, deb ko‘tarmading bosh.  
Ayt-chi, senla baxtiyor onlar,  
Ko‘rganmiding ko‘zimda bir yosh?

She’r nihoyatda ravon, bir-ikki o‘qilgandayoq o‘quvchilar xotirasida qoladi. Shu bois she’rni yod olish uchun uyga vazifa tarzida topshirish maqsadga muvofiqdir. Zulfiyaning «Tun» nomli she’ri esa badiiy ifodalarga boy, o‘ziga xos bir kayfiyatni ifodalaydi. She’r tunning kirib kelishini ifodalash bilan boshlanadi.

Tog‘ ortiga o‘tib ketdi kun,  
Sekin cho‘kdi toza, salqin tun...  
Men deraza ochganim chorborg‘  
Sokin uxlар tun ko‘rpasida.

So‘ng uyquga ketgan chorborg‘, tungi mayin el, shabada, iimni allalayotgan suvning shildirashi kabi tasviro‘quvchini tun og‘ishiga etaklagandek bo‘ladi. Faqat bir uyg‘oq qalb, ijodkor o‘zining har doimgi hamrohi qog‘oz, qalam, chiroq qarshisida bedor. Tunda u o‘z xayoli, faqat u tinglayotgan kuy vositasida tunning manzarasini chizib beradi. Yoki «so‘z topolmay ifodasiga, rang axtarib shoshib qolaman» kabi misralarida tungi ijod og‘ushiga kirgan shoiraning holati, hamma uyquga ketganda, u so‘z olami ichra bedor ekanligini tasvirlaydi. Tundagi ijod mashaqqati, atrofdagi manzara, ijodkor singari bedor parvonaning harakati, shoiraning ichki tuyg‘ulari bilan qorishib ketadi. Ijod tuyg‘usi og‘ushida tong otganini sezmay qoladi.

Zulfiya mazkur she’rida ham go‘zal badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Bir o‘rinda, yulduzlarning ertak so‘zlashini aytish orqali intoq san’atini qo‘llasa, yana bir o‘rinda, tunning lirik qahramon ko‘zi oldida erib ketishini tasvirlash orqali husni ta’lil san’atini qo‘llaydi. Husni ta’lil -chiroyli<sup>18</sup> dalillash, tasvirga shoirona biron sabab ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi. Bu manzarada esa, tunning shoira ko‘zlarida erib ketishiga sabab tong otganligidir.

Akademik litseylarning uchinchi bosqichida<sup>19</sup> Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostoni o‘rganiladi.

Zulfiyani doston janridagi ijodiy izlanishlari ham tahsinga loyiq. Shoira turli yillarda xilma-xil mavzularda “Uni Farhod der edilar”, “Mushoira”, “Vodil yulduzlari”, “So‘roqlaydi shopirni she’rim”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi asarlar yaratib, o‘zbek dostonchiligi an’analarini rivojlantirdi. Soirani “Quyoshli qalam” asari dostonchiligidan o‘ziga xos quvonchli voqeа bo‘ldi. Dostonda ulug‘adib, sevimli shoir vadonishmand olim Oybekning yorqin obrazi zo‘r hayajon va katta muhabbat-u, ixlos bilan chizib berilgan.

---

<sup>18</sup> Каранг: Ф.Бадриев. Юкори синфларда адабиётдан синфдан ташқари ишлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969, 90-бет.

<sup>19</sup> To‘xliyev B.va b. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

Doston “Hayol qanotida”, “Yaratish dardi”, “Navoiy yuragi urib turibdi”, “Daryoday uyg‘q” singari qismlaridan iborat. Ularda hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirgan. Dostonda voqeа bosh qahramon Oybekning o‘limi tasviri bilan tugasa-da, asarda hayotbaxsh ruh, quyoshli qalam sohibi Oybek domlaning mangu barhayotligiga komil ishonch ruhi balqib turadi:

*Buyuk bu uy uni etarkan ardoq  
”Oybek ishlayapti!” - deydi nasllar...  
O‘z ko ‘rkini ko ‘rib tasvirlarida  
“Oybek ishlayapti!” - deydi asrlar.*

Zulfiya ijodi “Xotiram siniqlari” (1995) dostoni o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Doston mustaqillik davrining mahsuli bo‘lib, unda mustaqillik dil-dildan ulug‘langan. Shoira asarda umri davomida o‘zi boshidan kechkan yaxshi va yomon kunlarini eslab, hayot va jamiyat taraqqiyoti haqida, baxt va badbaxtlik to‘g‘risida teran poetic mulohaza yuritgan. Sho‘rolar davridagi achchiq hayot qoldirgan dard-u alamlarini, orzu-istiklarini doston misralari qat-qatiga to‘kib slogan. Shu tarzda el-yurt ko‘ngliga harorat baxsh etgan. Mustaqillikning buyuk ne’mati haqiqiy hurriyatni, chin erkinlikni katta quvonch bilan olqishlagan:

*Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding...  
Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.  
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –  
Sening nasimingga qalbimni titdim  
Kelding-ey, Istiqlol istiqlol bo‘lib,  
Qalbimga nasiming bilan yo‘l solding.  
Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,  
Men og‘ir bulutdek bir yog‘ib oldim...*

Zulfiyaning bu lirik dostonida maqsad aniq bo‘lganidek, uning ifodasi ham kam-u ko‘stsiz. Shoир yangi hayot – mustaqillik haqida hayajon bilan kuylar ekan, yangi-yangi tashbihlar, yorqin obrazlar yaratgan. Ana shuning uchun ham bu lirik-falsafiy dostonni 80 yoshli shoira ijodining o‘ziga xos gultoji desa bo‘ladi.

Doston nafaqat istiqlol davri adabiyotida, umuman XX asr oxiri XXI asr boshlari o‘zbek poemachiligi takomil tarixida ayricha ahamiyatga ega. Gap asar mavzui milliy istiqlolga bag‘ishlanganligida emas. Hamma gap, hurriyat uyg‘otgan milliy g‘urur tuyg‘ularini ta’kidlash asnosida inson ruhoniyatni iqlimlariga teran kirib borganligida, kechinmalar silsilasi asosida erkka intilib yozg‘irgan ruhning suratini chiza bilganligida ko‘rinadi. Shu ma’noda, doston erk haqidagi erksiz ruhning nidosi; alamli, iztirobli hayqirig‘i. Ijtimoiy tuzum, hukmron mafkura qaddini bukkan, xotirasini sindirgan, va lekin, qadrini mahv etolmagan ruhoniyat suratlari, deging keladi.

Dostonda ijtimoiy tuzum ko‘rguliklaridan yongan, kuygan, va lekin, ado bo‘lmasdan inson ruhi bo‘y ko‘rsatadi. Zo‘ravon zamona zulmidan qontalash insoniy taqdirlar ko‘z ochadi. Kechinmalarga ko‘chgan qismatlar so‘zlaydi. Dostondagi tahayyullar tabiat shundan iboratki, lirik qahramon xotirasida tiklangan — singan takdirlar misolida o‘z yurti, millati boshiga tushgan zo‘ravon tuzum ko‘rguliklariga qarshi bosh ko‘targan nolalarini satrlarga tizadi.

*Onam, "suv boshidan loyqa" derdingiz,*

*Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur.*

*Muhtasham binoda sirli, yashirin*

*Asl yigitlarga qazilardi go ‘r...*

*Va faqat derdtgiz: "soldim xudoga",*

*Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku. ...*

*Sabr-qanoatdan yaralgan elim,*

*So ‘qir ham o ‘ziga so ‘qmoq izlar-ku<sup>20</sup>.*

Lirik qahramonning yongan so‘zlari, bu-millatni sukutga cho‘mdirgan, so‘qir dillarni yuzaga keltirgan, shirin yolg‘onlarni katta haqiqat deb bilgan mutelik psixologiyasiga, gumrohlikka, g‘ofillikka qarshi isyondir. Alamdan, iztirobdan

---

<sup>20</sup> Zulfiya. Tong bilan shom aro. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012-yil. 213-bet.

junbishga kelgan tuyg‘ular tug‘yoni bu. Mazkur mazmun yo‘nalishi bilan ham asar erksevar xalqlar ko‘ngliga yo‘l topadi. Lirik qahramon "yallig‘lanib yotar keksa xotiram", deyishligi bejiz emas.

*Eng kichik giyoh ham nazdimda uyg‘oq*

*Faqat el-elatni sukutda ko‘rdim.*

Zo‘ravonliklarga qarshi dilda tug‘yoni toshgan lirik qahramon dard-alamlaridan hamir qorayotganga o‘xshaydi. Xotira siniqlariga aylangan fig‘on kulchalarini ulashayotgandek tuyuladi.

"Xotiram siniqlari" Zulfiyaning millatni uyg‘oqlikka, kurashchanlikka da’vat etuvchi o‘tli nidosi. Ana shu tuyg‘ular tahlilidan bugungi kunlar shukronasi, milliy istiqloladan g‘urur tuyg‘ulari sizib chiqayotganligini tuyish mumkin.

Ko‘ramizki, g‘urur hissi odamning ijtimoiy hayotdagi mavqeい va holatidan, kelajagi yorug‘ ekanligidan ishonch va qanoat tuygan lahzalarda yuzaga chiqayotir, o‘zligini dunyoga tanitayotir. G‘urur tuyg‘usi sevinch yoki nafrat hislari singari tug‘ma emas. Nemis faylasufi Gerder "Insoniyat tarixi falsafasiga oid g‘oyalar" asarida ta’kidlaganidek, milliy iftixor — tarbiya mahsulidir. Demak, g‘urur tuyg‘usi odamlar ko‘nglida tarbiyalanadi, kamol topdiriladi. Demak, go‘zallikni anglash va uning ma’nosini bilish barobarida odamlar ko‘nglida o‘z holatidan qanoat hosil qilish yoki o‘z ustunligini tuyish hissiyoti paydo bo‘lar ekan. Ushbu ko‘tarinki kechinma tabiiyki, o‘tkinchi ehtirosning bir ko‘rinishi. Uni barqaror etish uchun u suv ichadigan ma’naviy-intellektual tayanch omillarini vujudga keltirish lozim. Ya’ni, kurtak tukkan g‘urur tuyg‘usini vujudimizda o‘sirish, iftixor bog‘lariga aylantirish har bir millatsevar vatandoshimizning burchi, vazifasidir.

Ma’naviy-intellektual yoki jismoniy mehnati samaralaridan tug‘ilgan g‘urur tuyg‘usi ko‘ngillarni tog‘dek ko‘taradi. Ko‘ksi osmon qadar kengayib ketgandek bo‘ladi. Ana shu xalq e’tibori va ehtiromidan yuzaga kelgan rohatbaxsh tuyg‘u, ma’naviy lazzat hissi inson umrini boqiylashtiradi. Nur umrini nur uzaytiradi-da.

Bu ochunda bor narsalarni ham, yo‘q narsalarni ham bildiradigan bosh mezon — odam. Uning ongi-shuuri borliq bilan yo‘qlikning tabiatini, mohiyatini hamisha farqlab, ko‘rsatib turadi. Moddiy va ma’naviy-intellektual qadriyatlar boqiy go‘zalliklar bag‘ridan unib-o‘sib chiqadi. Ana shunday huzurbaxsh asnolarda odam g‘ururi chek-chevara bilmaydi. O‘zini behad baxtli deb biladi. G‘urur hissining qodir salohiyati bois inson boqiy baxtga munosib. Baxt esa, baqo guli. U yolg‘iz odamlar yuragida gullaydi.

Zulfiyani “Mushoira” dostonida hikmatli fikrlar, chuqur mulohaza va mushohadalar lirika torlariga solinib, ifodalangan. Doston zamonaviy ruh va milliy tarovat bilan bezangan. Mushoirada qatnashgan shoirlar o‘z mamlakatlarining tabiat manzaralari zamirida, o‘ziga xos milliy libosida aks ettirilgan hamda majoziy yo‘l bilan ta;rif-tavsif qilingan. Zulfiya dunyodagi barcha shoirlarning faqat tinchlikni, faqat ezgulikni kuylashlarini orzu qiladi va o‘z asarlarini anashu qutlug‘ niyat bilan ko‘tarinki ruhda yakunlaydi:

*Davramiz mehrga to ‘liq bir olam,  
Do‘stlik bari jam  
Buyuk mushoira etadi bayon,  
Kelingi siz ham!*

Zulfiyaning chet el xalqlari hayotini, ularning tinchlik va do‘stlik uchun kurashini aks ettiruvchi asarlari orasida “Mushoira” dostoni alohida ajralib turadi. Unda Osiyo va Afrika taraqqiyatining 1956-yilda Hindistonda bo‘lib o‘tgan konferensiyasi voqealari, she’r bahsi, she’rxonlik hikoya qilinadi. Shu orqali xalqlar do‘stligi, insonparvarlik va tinchlik uchun kurash g‘oyalari ustalik bilan olg‘a suriladi.

1. Zulfiya tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Zulfiya she’riyatining boshqa shoiralar ijodidan farq qiladigan tamonlari nimada?
3. Zulfiya ijodida hijron mavzusi.
4. Zulfiyaning “Quyoshli qalam” dostonining g‘oyaviy mazmuni va u kimga atab yozilgan?
5. Shoiraning “Xotiram siniqlari” dostoni haqida ma’lumot bering?

## 6. Birorta she'rini yozib tahlil qiling.

Shunday qilib, Zulfiya ikkinchi jahon urushidan so'nggi davrda butun dunyoda tinchlik uchun kurash va xalqlar do'stligi mavzularini tasvirlashga alohida e'tibor berdi va bu ishda katta yutuqlarga erishdi. Shoiraning Hindiston respublikasining Javoharlal Neru nomidagi davlat mukofoti (1968) va xalqaro "Nilufar" mukofoti (1970), shuningdek, bulg'orlar mamlakatining "Kirill va Mefodiy" ordeni bilan taqdirlanligi bejiz emas, albatta.

1999-yil 10-iyundagi Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq adabiyot, san'at, madaniyat, fan, ta'lim sohalarida faol, tashabbuskor qizlar ushbu mukofotga sazovor bo'lmoqda. Ayni shu kunlarda ularning soni 200 nafardan oshgani, ayniqsa, quvonarli.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibalari sonining kengayganligi va magistratura mutaxassisligiga imtiyozli kirish imkoniyatining berilishi shoira xotirasiga hurmatdir.

Jizzax shahrida o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashgan Hamid Olimjon va Zulfiya ya nomidagi maktab-internat ochildi. O'zbekzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-iyundagi «Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan bu ezgu maqsad amalga oshirildi. O'tgan besh oy davomida o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashgan maktab-internat uchun 4 qavatli zamonaviy bino qurib bitkazildi. Binoda keng va yorug'sinfxonalardan tashqari 100 o'rinli yotoqxona va oshxona, faollar zali hamda boshqa xonalar bor. O'quvchilar jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun sport maydonchalari barpo etilgan. Joriy yil 1-oktabrdan faoliyat boshlagan maktab-internatning 5-, 6-, 7-, 8-sinflariga barcha tuman va shaharlardan sinov asosida 120 nafar iste'dodli o'g'il-qiz o'qishga qabul qilindi.

Zero, bugungi kunda yuksak ma’naviyatli, barkamol avlod tarbiyasida XX asr o‘zbek adabiyotimizning ko‘pgina namunalari singari shoira Zulfiya lirikasi ham muhim ahamiyatga egadir.

## **II bob. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish metodikasi**

### **2.1. To‘garak mashg‘ulotlarida Zulfiya lirikasini o‘rganish va tahlil qilish**

To‘garakda o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan yangiliklar bilan tanishadilar. Ularni qiziqarli, jonli bo‘lishiga harakat qilish kerak. To‘garak a’zolarining yosh xususiyati, bilimi, iqtidorini e’tiborga olib reja tuziladi va har bir to‘garak rahbari shu to‘garakning xususiyatini aniqlagan holda ish yuritadi.

Adabiyot va adabiy o‘qish mashg‘ulotlariga aloqador bo‘lgan to‘garaklar asosan 3 turlidir.

1. Adabiy – ijodiy to‘garak.
2. Drama to‘garagi.
3. Ifodali o‘qish va badiiy ijod to‘garagi.

Ma’lumki bu uch to‘garak ham o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, adabiyotdan yanada ko‘proq ma’lumot olishini, o‘z ustida ishlashni, ijodga ilhomlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur to‘garaklarning maqsad va vazifalari nuqtada birlashadi.

To‘garakda o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan yangiliklar bilan tanishadilar. Ularni qiziqarli, jonli bo‘lishiga harakat qilish kerak. To‘garak a’zolarining yosh xususiyati, bilimi, iqtidorini e’tiborga olib reja tuziladi va har bir to‘garak rahbari shu to‘garakning xususiyatini aniqlagan holda ish yuritadi.

Drama to‘garagiga rahbarlik qiladigan o‘qituvchi: dramatik asarlarning xususiyatlarini egallagan va ma’lum darajada aktyorlik san’atidan ham xabardor bo‘lishi, o‘quvchilar oldida biror – bir personajning harakat va nutqini odat va xarakterini ko‘rsatib bera ololadigan bo‘lishi lozim.

Adabiy-ijodiy to‘garak rahbarida esa adabiyot asarlarini tahlil etish, nazariy bilim berish va ijod ishidan ham xabardor bo‘lsa, va o‘z ijodidan o‘quvchilarga manzur qila oladigan bo‘lsa, mazkur to‘garaklar obro‘sni yanada oshadi. .

To‘garak mashg‘ulotlari bir oyda, bir yoki ikki marta o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar oddiy sinfda emas, balki maktab adabiyot kabinetini maktab sahnasida

o‘tkazilgani ma’qul. Mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyning tashqi ko‘rinishi ham o‘quvchilar ruhiyatiga kuchli ta’sir qiladi / portretlar, asarlari bilan bezab.

Mashg‘ulotlar mavzusini xilma-xilligi ishning mazmuniga o‘quvchilarning qiziqishlariga ta’sir etadi.

Bir yillik mashg‘ulot uchun tuzgan reja o‘z navbatida dastur materiallari asosida adabiyot va adabiy o‘qish yuzasidan o‘quvchilarga beriladigan ma’lumotni boyitish va kengaytirishda, ayniqa drama va adabiy-ijodiy to‘garaklar ahamiyatlidir.

**Adabiy – ijodiy to‘garaklar.** Mazkur to‘garakning mashg‘ulotlari 2 xil xarakterga egadir. Mashg‘ulotning bir xili sinfda olingan bilimni mustahkamlash va to‘ldirishga, adabiy asarlar yoki ayrim yozuvchilarning ijod yo‘li bilan tanishishga qaratilsa, ikkinchi bir xili o‘quvchilarning mustaqil ravishda olib boradigan ijodiy ishlarini o‘sirish va unga rahbarlik qilish, yo‘llanma berishga qaratilgan bo‘ladi. Buning yaxshi tomoni shundaki, o‘quvchilar bir mashg‘ulotda biror yozuvchinig asarini tahlil qilsalar, ikkinchi mashg‘ulotda xuddi shu asosda to‘garak a’zolari tomonidan yozilgan she’r va hikoyalarni tahlil qiladilar. Olingan nazariy bilimlar va asarning badiiy xususiyatlari, ma’naviy va madaniy san’atlar haqida bilimlari yuzasidan hosil qilgan malakalarini o‘z asarlari muhokamasiga ham tatbiq qiladilar. Xuddi shu yo‘sinda o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida o‘quvchilarda adabiy asarlar o‘qishga havas uyg‘onadi.

To‘garakning vazifasi va maqsadi esa o‘quvchilarning qiziqishini tarbiyalashdan ularga sistemali ravishda ko‘rsatma berib borishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Mustaqil ijodiy ishlar albatta nuqsonli bo‘ladi. Bu ishda juda ehtiyyot bo‘lmoq kerak. Rahbar to‘garak a’zosini bezdirib qo‘ymasligi, tahlil va tuzatish jarayonida bosiqlik bilan, ilmiy nuqtai nazardan yondoshmog‘i lozim.

Ijodiy mustaqil ishlarni tahlilda kichik hajmli asarlarni ayniqsa she’rlarni doskaga yozish, va doskada tushuntirib berish lozimdir. Bularni proektor vositasida olib borilsa yanada yaxshi. Umumiylu muhokamada to‘garak a’zolari o‘z fikrlarini

aytadilar. O‘qituvchi rahbarlgida shu ish nuqsonlarini tuzatib chiqish, kelgusida qanday yozish yo‘llarini ko‘rsatish, tahlil qilingan asarlarni gazeta va jurnallarda nashr qildirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Taqrizlar yozdirish, tinglash va muhokama yakunlanadi, yutuq va kamchiliklarni tuzatish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Drama to‘garagi – o‘qunchilarning adabiyotga, ayniqsa dramatik asarlarga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalash vositasidir.

Xususiyatlari: to‘garak a’zolari oldiga qo‘yiladigan talablarning xarakteridan kelib chiqib, to‘garak a’zolari adabiyot nazariyasi, badiiy asarni tahlil qilish yo‘llari, janrlar va ularning xususiyatlari, tuzilishi va ishlari bilan tanish bo‘lishlari lozim. To‘garakka qiziquvchi havaskorlar to‘planadi. Mashg‘ulotlar sinfda va sinfdan tashqari o‘qiladigan materiallar asosida mashg‘ulot rejasi tuziladi.

To‘garakning eng muhim bosqichlaridan biri asarni sahnaga qo‘yishga tayyorgarlik davridir. Bu davrda o‘quvchilar asarning maqsadi, badiiy xususiyati va uni o‘qish texnikasi bilan tanishadi. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narsa repertuardir. Har qanday sahna asarlarini emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘quvchilarda mehr-shavqat, muhabbat, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydigan, ularning hayotlariga yaqin turgan asarlarni, o‘quvchilarga tanish bo‘lgan yozuvchilarning asarlarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Drama to‘garaklarda mashg‘ulotning yana bir turi adabiy montajlardir. Tanlangan mavzuni yoritish uchun turli asarlardan kerakli epizodlarni, she’riy parchalar, ashulalar kiritiladi.

To‘garak a’zolari nazariy malakani oshirish uchun ko‘rgan kino, teatri haqida, aktyorlar mahorati haqida muhokama va muzokaralar o‘tiladi.

Bu ish ularning qiziqishlarini yanada oshiradi.

Ifodali o‘qish to‘garagi – asosiy maqsadi o‘quvchilarni ifodali o‘qish va badiiy hikoyalashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon anglatishga o‘rgatishdan iborat. Reja tuziladi va shu asosda o‘qiladigan asarlar ro‘yxati aniqlanadi, o‘qish texnikasi va asarlar mazmunini tushunishga yordam beruvchi nazariy ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiriladi.

Adabiy kechalar odatda barcha to‘garaklar ko‘rigi hisoblanadi, To‘garak kuchi ma’lum bo‘ladi.

O‘qituvchi Zulfiya she’rlarining badiiy tahlilini o‘quvchilarga tushuntirib bergach, she’rlarni yod olishni uyga vazifa qilib fopshiradi. **Yod olingan she’rlarni ifodali o‘qilishini**, dars jarayonida to‘la boshqarib borishning imkonи biroz cheklanganligi sababli, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan adabiy tadbirlarda kuzatib borishi mumkin. Yoki adabiyot to‘garagi mashg‘ulotlaridan birini Zulfiya hayoti va ijodiga, uning she’rlarining ifodali o‘qilishiga bag‘ishlashi mumkin.

Chunki sinfdan tashqari o‘tkazilgan adabiy tadbirlar, o‘quvchilarning badiiy asarlami mustaqil o‘qishida, she’riyatga mehr, qiziqish uyg‘otishda muhim o‘rin egallaydi<sup>21</sup>. Shuningdek, mazkur mashg‘ulotlarda Zulfiya hayotiga doir albom, devoriy gazeta tayyorlashni topshirish, turli savol-javob, viktorinalar, baxribaytlar o‘tkazish ham yaxshi natijaberadi. Shuningdek, shoira haqida, uning ijodi haqida qo‘srimcha nazariy bilimlarga egabo‘ladilarhamda dars jarayonidagi ma’lumotlarni chuqur va puxta o‘zlashtirishlarini ta’ minlaydi.

“Umumiyl o‘rta ta’limning 5-9-sinflarida o‘quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarning aks ettirish zaruriyati esa o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.

Ta’limning turli bosqichlarida o‘rganish uchun saralab olingan asarlarga qo‘yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo‘nalishi, o‘quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, uning kamoloti uchun ko‘rsata oladigan ijobiy ta’siri, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga

---

<sup>21</sup> Ф.Бадриев. Юқори синфларда адабиётдан синфдан ташқари ишлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 93-бет

uyg‘unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rni singari belgilar olinishi mumkin”<sup>22</sup>.

Iste’dodining qudrati tufayligina muhabbat haqida yozmagan, balki qalbini o‘rtagan shaxsiy fojiasining iskanjasidan chiqmoq, har kuni tortayotgan hijron azoblarini o‘zgalar bilan o‘rtoqlashmoq maqsadida qalam surgan shoira Zulfiyaning she’rlarini o‘rgatishga bag‘ishlangan darsning maqsadlarini tubandagicha tayin etish mumkin:

- a) **tarbiyaviy maqsad** - o‘smirlarda sadoqat, vafodorlik tuyg‘ularini shakllantirish, tabiat va inson go‘zalliklari uyg‘unligini anglatish;
- b) **ta’limiy maqsad** – o‘quvchilarga shoira ijodining bosh yo‘nalishi to‘g‘risida ma’lumot berish, she’rlar bilan tanishib, ularni tahlillash, lirik tur haqida tushuncha berish;
- d) **rivojlantirish maqsadi** - badiiy asarlardagi fojiaviy sezimlar ifodasini anglash orqali o‘smirlar ruhiyatini ezgu tuyg‘ular bilan boyitish.

Adabiyot o‘qituvchisi Zulfiya hayotidagi yirik fojia - Hamid Olimjon o‘limi hamda shoira Zulfiya ijodidagi bosh mavzu – hijron alamlariga o‘quvchilar e’tiborini tortishi darkor. Zulfiya shaxsi faqat iste’dodli shoira sifatida emas, balki vafo va sadoqat timsoli sifatida ham o‘quvchilar ma’naviyatiga ta’sir qilishiga erishmoq o‘quvchining asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Zulfiyaning she’rlarini yod o‘qib berilganidan so‘ng o‘quvchilar bilan hamkorlikda, darslikdagi savol-topshiriqdan foydalangan holda tahlil etilishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi har satridan dard siqib turgan she’rlar haqida axborot bermasligi, balki anashu dardchil asarlar vositasida o‘quvchilarning shoira iztiroblarini tuyushga imkon yaratishi darkor.

Zulfiyaning “**Sen qaydasan, yuragim**” she’ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o‘tib yozilgan bo‘lib, unda hijron o‘tida qovrilayotgan alamdiyda ayolning

---

<sup>22</sup> Uzviydashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi . Ona tili va adabiyot (5 – 9 sinflar). – Toshkent: 2010 yil. 24-25 bet.

chin tuyg‘ulari aks ettirilgan. O‘qitivchi matnni o‘qishdan avval she’rning ohangini aniqlab olishi kerak. Mazkur g‘amgin she’r ko‘tarinki yoki baland tovush bilan ijro etilishi mumkin emas. Mabodo shunday qilinsa, shoiraning ovozi, uning g‘amlari ifodasi, she’rning asl ruhi yo‘qoladi. Shuning uchun ham “Sen qaydasan yuragim” she’ri mayin ovoz bilan shikasta aytilishi darkor. O‘qituvchining hazin ovozi o‘quvchilarining tuyg‘ulari ko‘zini ochadi, ularni she’r ruhini tuyushga, his qilishga olib keladi.

She’r bilan tanishib chiqilgach, o‘quvchilardan - ushbu she’r bo‘yicha fikr bildiradiganlar bormi – deb so‘rash mumkin. Mabodo she’rni matni qaysidir bolaning qalbida hissiyat uyg‘otishga ulgurgan, kimdadir fikrlar paydo qilgan bo‘lsa, o‘shalarni eshitishdan erinmaslik lozim. O‘quvchilarining kichkinagina kashfiyoti adabiyot o‘qituvchisi va pedagogik amaliyot uchun barcha adabiyotshunoslarning ilmiy kuzatishlari – yu chiqargan xulosalaridan ko‘ra muhimroqdir. Ko‘zda tutish kerakki, o‘quvchilarining fikr-tuyg‘ulari o‘qituvchiniki yoxud shoiraniki bilan hamohang bo‘lmasligi ham mumkin.

Zulfiya uchun Hamid Olimjon ham sevimli yor, ham maslahatdosh do‘sti edi. Endi u yo‘q. Yig‘lamaslik, g‘amga cho‘kmaslik imkonsiz. Iroda ojizlik qilmoqda. Atrofda odam ko‘p-u lirik qahramon “yakka-yolg‘iz”. Axir uning suygani olamda birgina edi, xolos. Uning o‘rnini o‘zga bosishi va qahramonni yolg‘izlikdan xalos eta olishi mumkin emas. Uning hayoli o‘zi istamagani yoki bilmagani holda yo‘qotganini izlash bilan ovora. Yorini yo‘qotganidan dunyoning rangsizlanib qolganini shoira: “Birdan qalbim keksarib”, - deya ifodalaydi. She’r yozilganida shoira bor-yo‘g‘i o‘ttiz yoshda edi. She’rdagi dard, hasratzadalikbandma-band oshib boravevadi:

*Qayga ketding, yuragim,  
Bitdi bardosh va toqat.  
Suhbatingdir yuragim,  
Tilda hasratim qat-qat.*

O‘quvchilar ayriliqni zo‘ridan tilida hasratlar qat-qat bo‘lgan mushtipar ayolning ruhiyatini his etishlari uchun ushbu misralarning ma’nosiga tushunishlari darkor. O‘quvchiga Zulfiyaning boshiga fojia tushgan kezlarda odam o‘z g‘amini

aytish imkonidan mahrum ekanligi bildirilishi kerak. Zulfiyaga, yuragi alamlardan pora bo'lgan yorga, hijrondan o'rtanayotgan bevaga, norasida farzandlarining so'roqlariga javob topa olmayotgan bag'ri qon onaga g'am to'g'risida, hijron to'g'risida keragidan ortiq yozmoqda degan ayb qo'yiladi! Bu hol she'rda, garchi muloyim bir hazinlik bilan "Yig'laysan deb do'stlarim ta'na qilar. Netay men?" tarzida ifodalangan esa-da, bu muloyimlik zamirida alam sirqirab yotibdi. Shoira – ahdida ustuvor. Tuyg'ulariga xiyonat qilmaydi. Shu sabab kechinmalari sovimapdi. Alami, hijroni har zumda yangilanadi, ro'zg'ori, farzandlari, kitoblar, do'stлari yo'qolganini hamisha eslatib turadi. Shu bois quyidagi o'tli satrlar bitilgan:

*Sovish bermaydi menga,  
Yoqib ketganing olov.  
Netay, etmaman senga,  
O'rtaga tashlangan g'ov.*

Muhabbatning olovi mangu yongulik qudratga ega. Aql yorning qaytib kelmasligiga iqror bo'lsa ham, ruh bunga ko'nikmaydi, u berahmlik bilan yiroqlarga ketgan yurakka – yorga intilaveradi. Sadoqatli shaxsning azoblari tinimsiz davom etaveradi.

She'rni shoira hayoti bilan bog'liq holda tekshirishuning ta'sir darajasini yanada oshiradi. Ammo buni faqat shaxsiy fojiadangina iborat tarzda izohlash ham o'quvchilarni to'g'ri yo'ga boshlamaydi. Mazkur dramatik holat shoira uchun shaxsiy bo'lsa-da, inson sifatida u kechirgan tuyg'ular bolalarga ham begona emasligiga urg'u berilishi kerak.

Darsning qolgan qismida "**Ne baloga etding mubtalo**" she'ri o'qib berilgach, darslikdagi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilar bilan birgalikda uni tahlil qilishga kirishadi. She'rda, xuddi avvalgi asardagi kabi, Hamid Olimjon nomi to'g'ridan to'g'ri tilga olinmaydi. Ammo shoiraning hayot yo'li bilan bir muncha tanish bo'lganliklari uchun ham o'quvchilar she'rning u haqda ekanligini bilishlari tabiiy. Shuning uchun ham she'rning alamli murojaat, javobsiz savol tarzida kimga atalganini aniqlash kerak.

She'r 1945-yilda yozilgan. Fojia ro'y berganiga qancha yil o'tgan bo'lsada, lekin uning alamlari eskirgan emas.

*O'tdi oylar g'am bilan oqib,  
Dil topmadi zarra tasallo.  
Firoqingda qoldim tutoqib,  
Ne baloga etding mubtalo.*

Oylarning g'am bilan oqish tasviri o'quvchi taassurotida tuyg'uning miqyosini gavdalantiradi. Ayriliq tufayli paydo bo'lgan g'am daryoday oqmoqda. Umr o'tayotir. Lekin vaqtning o'tishidan dil zarra qadar tasalli topa olmayapti. Haqiqiy yo'qotish oldida vaqt ham ojiz. Ikkinchি banddagи

*Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,  
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.  
Yupatolmas kitob va qalam,  
Misralarim ko'tarar nolish.*

mislalariga qaratilishi va umdagи poetik ma'noni topishga erishish lozim. Alamning zo'ridan ko'zini ocholmaydigan holga tushgan, yuragidagi g'am o'ti tufayli bosh qo'yan bolishi kuydirar darajagayetgan lirik qahramon tuyg'ulari bolalarga yuqadi. Umid bilan bir yostiqqa bosh qo'yan sevikli yorni yodga tushirgani tufayli ham yostiq boshni kuydirgani ifodasining shu qadar shoirona berilishi o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Tuyg'ular tasvirining izchilligiga diqqat qilish zarur: vujud va yurak qiynog'i tasviridan keyin bu qiynoqlarni bosmoq vajidan kitob va qalamga qo'l urilgani, ammo na kitob, na qalam qahramonni yupata olgani anglashilmoqda va "Misralarim ko'tarar nolish" tarzidagi kuchli mantiqning chiroylı ifodasini ilg'ashga urinaylik: yana nolani, yana dardni, yana hijronni-da! Chunki chinakam she'r qalb hislarini ifodasi-ku! Shoira o'z hissiyoti xurujining quyuq manzarasini bergach, so'raydi:

*Nahot, shuncha ma'sum, shuncha pok  
Sevishmoqda alam bor shuncha.*

Sirdan qaraganda, bu so'zlar oshiqqa qaratilganday ko'rinsa-da, aslida taqdir, qismat so'roqqa tutilmoqda. Va "shuncha" so'zining takror ishlatalishi g'amining naqadar cheksizligini o'zi ham tuzukroq bilmaydigan kishi holatini g'oyat go'zal aks ettirmoqda.

She’rning so‘nggi bandi o‘quvchilarni o‘ylashga undashi, ularga tuyg‘ular rang-barangligini sezish imkonini berishi bilan ajralib turadi:

*Erib ketmagandim sevgingdan  
Bo ‘lmaslikchun baxtingdan judo,  
Birga qolish uchun sen bilan  
Kuyaman-u, bo ‘lmayman ado.*

Shoira vujudagi tuyg‘ular mavji uni baxtiyor damlar qatlanib yotgan xotiralar qirg‘og‘iga keltirib tashlaydi. U armon bilan eslaydi: tirikligingda sendan ayrilmaslik, baxtdan judo bo‘lmaslik uchun olovli muhabbatning taftida erib ketmagandim. Endi qabring poyida sen bilan birga qolish uchun shamday eriyman-u, kuyaman-u ado bo‘lolmayotirman! Demak, avval, erish mumkinligida ayrilmaslik uchun atay erimagandim, endi senga qo‘shilish uchun atay erib ketmoqchiman-u, eriy olmayotirman! Bir yuksak tuyg‘uning ikkita qarama-qarshi ma’nolar tashiydigan baytlarda ifodalanishidagi mazmun nazokatidan tashqari, ifoda go‘zalligi Zulfiya she’riyatining asl qimmatini namoyon qiladi.

Shoira she’rlarini o‘qitish maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan oldingi mavzular bilan birga quyidagi vazifalarning bajarilishi zarur bo‘ladi:<sup>23</sup>

- o‘quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg‘otish;
- o‘quvchilarning badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo‘llashga o‘rganishlariga erishish;
- o‘quvchilarning og‘zaki nutqlarini adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta’minlash;
- ularning yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;

---

<sup>23</sup> Хусанбоева К. Тахлил адабиётни англаш йўли. –Тошкент: Мухаррир, 2013. 54 бет.

- adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o‘z fikrlarini boshqalarga og‘zaki va yozma tarzda yetkazish yo‘llarini egallash;
- badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go‘zallik va nafosatni his etishga o‘rgatish;
- ulardagi badiiy matnni emotsiyal tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san’at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini, ularning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, adabiyot o‘qitish quyidagicha amalgam oshiriladi:

V-VII sinflarda yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o‘qish, o‘rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o‘rganish va sinfdan tashqari o‘qishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bu erda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko‘proq ahamiyat beriladi. O‘quvchilarning ijodiy o‘y xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o‘rin tutadi. Garchi bu asarlarning har birini o‘rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to‘la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko‘lamida o‘rganish kerak.

VIII-IX sinflarda o‘quvchilarga milliy adabiyotning rivojlanish tarixi, uning asosiy bosqichlari, undagi etakchi tur va janrlar, eng muhim asarlar haqida dastlabki tushunchalar berish; ularga o‘zbek adabiyoti tarixi yaxlit bir estetik jarayon ekanligini singdirish; badiiy matnning asosiy unsurlari, uning ta’sirchanligini ta’milagan omillar, adiblarning badiiy mahorati, uslubiy o‘ziga xosliklarini aniqlash; mavzularga mos adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish; ularda adabiy asarni tahlil qilish malakasini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Adiblar va asarlarni o‘rganishdagi xronologik izchillik ham bunga xizmat qiladi. Mazkur asarlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, ayrim adabiy-nazariy

tushuncha (janr, tur, tasvir vositasi, she’riy va nasriy nutq)lar haqidagi ma’lumotlar ham beriladi”.<sup>24</sup>

Zulfiya ijodini o‘rganishga mo‘ljallangan ikkinchi soat “Sensiz” she’rini o‘rganish bilan boshlanadi. U 1970-yilda yozilgan. Mazkur she’rni shoira hayotidagi fojianing bevosita aks-sadosi deyish qiyin, chunki oradan chorak asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan, oddiy tasavvurlarga ko‘ra, har qanday g‘am-alam unitilishi uchun etarli fursat kechirilgan. She’rning dastlabki misralari ham anashu tasdiqlaganday bo‘ladi:

*Mana bir umr yashadim sensiz,*

*Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib.*

O‘quvchi she’rga olib kiradigan birinchi misralarning ma’nosini chaqishga, ular zamiridagi go‘zallikni ko‘rishga o‘rgatilishi zarur. Shodliklar oshiq bilan qalbga kirgan, shu bois qaytmas lirik qahramon buni juda chuqr his etadi. Ammo u inson-da, umid bilan baribir qandaydir mo‘jizani kutaveradi. Shu taxlit aldamchi umid bilan butun umr yashab qo‘yilibdi! Shuning o‘zi bir insonga etgulik fofia. Bu holning tasviri ham o‘ziga etguday badiiy yuk. Lekin she’rdagi fojiaviy ohang pasaymaydi, bil’aks misrama-misra yuksalib boraveradi. Chunki lirik qahramonning yarador qalbi har qanday tuyg‘u qarshisida himoyasiz: baxt ham, bahor ham, qish ham uni qiynaydi. Negaki, birovning baxti o‘zining baxtsizligini esiga soladi, yorning sevgan fasli bahor qaytib kelaveradi, bahorni seuvuchchi inson esa yo‘q. Qish – og‘ir kechadigan fasl, shu8 bois baribir bahorni – yo‘qotilgan sevgini esga tushiraveradi. Qayg‘uga ham befarq bo‘lmaydi, zotan, har bir insonning har qanday qayg‘usi qahramon qayg‘usiga o‘xshash, hamohang! U seviklisini unuta olmaydi, esdan chiqarishga urinsa ham, buning uddasidan chiqolmaydi. Va qiynalib ketganlarida hayolan yoridan so‘raydi: ”Tirik ekan nega tashlab ketmading?” Bu – bandasining ilojsizlikdan, vaqt va muhabbat qarshisidagi ojizlikdan bildirgan noroziligining avj ifodasi. Shundan keyingi

---

<sup>24</sup> Uzviydashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi . Ona tili va adabiyot (5 – 9 sinflar). –Toshkent, 2010 yil. 35- bet.

misralardayorning shoiraning tashlab ketishiga sabab bo‘ladigan go‘zalning sifatlari keltiriladi. Uningcha, suyganidan tiriklikda ayrilganda, keyingi hijron bu qadar og‘ir kechmasdi.

Lirik qahramon tuyg‘ulari - pokiza. U biladi, hijron azobli, tirik turib ayrilish har nedan qiyin, lekin sevgan kishisining hayoti uchun har qanday azobganda tayyor: ”Bilardim, qaydadir olasan nafas”. Shoira tuyg‘ulari tasviri maromini buzmaydi. Lirik qahramon har qanday rad etilgan ayol singari:

*Bilaman, rashk meni etardi halok,*

*Afzal ko ‘rganiningni qarg‘ab o ‘tardim, -*

degan so‘zлari bilan o‘zining asl tuyg‘ularini ochiq aytadi. Jonidan ortiq yaxshiko‘rgan kishisining qaydadir, qandaydir boshqa birov bilan bo‘lishini his qilish qahramon uchun oson emas. Garchand u bugunga kelib, qaytarilmas yo‘qotishlar qarshisida shunga ham rozi esa-da. Shu bois u nega tirikligingda tashlab keta qolmading, hijroningni kechirish osonroq bo‘larmidi deb oshig‘iga iddao qiladi.

She’rning songgi bayti tahliliga ayniqsa e’tibor berilishi kerak. Zulfiya she’rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko;pincha so‘nggi bandda beriladi. Lirik qahramon o‘z qismatining taxirligidan nolib kelar ekan, tuyg‘ular jumbushi borgan sari yuksalib boraveradi.

*Ma ’yus taqdiringga yashab men sherik,*

*Mushkul bo ‘layotir shodlik yaratmoq.*

U oshig‘ining qismatisiz, uning mayus taqdiriga sherik bo‘lmasdan yashay olmaydi. Hayot esa undan “shodlik yaratishni” talab etadi. Shu bois lirik qahramon suyganidan norozi bo‘ladi, shu sabab alam bilanunga murojaat etadi:

*Nega tirik ekan tashlab ketmading,*

*Tashlab ketmading-sa boshlab ketmading?!*

Lirik qahramon hayotining, tuyg‘ulari ko‘lamining yorqin ifodasi she’rning so‘nggi misrasiga go‘zal joylangan. So‘nggi misrada ”esa” so‘zning ”sa” tarzida

berilishi ham, -sa shakli tufayli jumla qurilishidagi o‘zgarishlar ham qahramon holatini ifodalashga, tasvirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zulfiyaning ”Oydinda” she’ri dasturda o‘rganish ko‘zda tutilgan boshqa she’rlaridan mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy ifoda tarziga ko‘ra ham farq qiladi. She’rda ko‘klamning yomg‘irdan keyingi tunlaridan birida yulduzlar charaqlagan osmon, olamni oqlikka o‘ragan oy, hayol kabi to‘zg‘in bulutlar go‘zalligini ko‘tarib hayajonga tushgan shaxsning kechinmalari, hayratlari aks ettirilgan. Bu asar shoira she’riyati yo‘nalishining sertarmoqligini ko‘rsatish, uning hassos qalbi ifodasi bilan bevosita tanishish ma’nosida oldin o‘rganilgan she’rlaridan keskin farq qiladi. Zulfiya she’riyati namunalarini o‘rganishga ajratilgan vaqtning ikkinchi soatida Oydinda” yoddan o‘qib berilishi kerak. She’r o‘qilgach, o‘qituvchi she’rdagi ifodalarni o‘quvchilar ko‘z oldida gavdalantirishga urinishi lozim. Shunda o‘quvchi muallif holatiga tushadi. Uning holatiga tushmay turib esa, Zulfiya she’riyatini his etishi mumkin emas. Shoira birinchi misralardan o‘zini to‘lqinlantirgan, lol qilgan manzarani so‘zlar vositasida chiza boshlaydi:

*Jilib-jilmas to ‘lin oy,  
Bulut hayolday engil,  
Oy anhorda qulun toy,  
Yaxlit oynaday bo ‘lib,  
Hovuzga yoyilgan u.*

Tahlilga kirishishdan oldin o‘qituvchi bolalarga quyidagi savollarga berishi joiz bo‘ladi. Oydin kechada ko‘kdagi to‘lin oy ko‘rinishi esingizdami? Anhorda aks etgan oy harakatini kuzatganmisiz? Yuzida shabnam tomchilari osilgan giloslarda nimalarni ko‘rish mumkin? Harakatsiz hovuzdagisi oyni nimaga o‘xshatgan bo‘lardingiz? Javob berish asnosida o‘quvchilar she’r matniga va uning tahliliga kirib boradigan va oyning ”jilib-jilmas”ligi, ”anhorda qulun toy”ligi-yu, ”gilosda shig‘il-shig‘il” aks etayotganligi, ”bulutning hayoldayyengil”ligi sababini oson topadilar.

Anhor tinimsiz to‘lqinlanib oqadi, shu bois unda aks etayotgan oy qulunday yugurik. Yomg‘ir yuvib ketgan gilos mevalarining har birida bittadan oy jilva

qiladi, shu bois gilosda “shig‘il-shig‘il”. Hovuz oqmaydi, shu bois oy unga yaxlit oynaday bo‘lib yoyilgan. Bolalar bu go‘zallikni she‘r misralari ko‘rib, kuzatganliklaridan so‘ng bu manzara qurshovida bo‘lgan lirik qahramon - shira namoyon bo‘ladi. Oyni yaxshiroq ko‘moq ilinjida egilgan lirik qahramon yana bir oyga, ya’ni o‘ziga ro‘baro‘ keladi. U malika yanglig‘ ming-ming yulduzni sidirg‘asiga chayqab, erga sudrab ketmoqda. Chunki tiniq osmonning hovuzdagи aksi tepadagisidan-da, tiniqroq ko‘rinadi. O‘quvchilar ham ortidan minglab yulduzlarni ergashtirib qadam tashlayotgan oyday go‘zal malakni ko‘z oldilariga keltiradilar. Buning uchun she’rdagi tengsiz o‘xshatishlarni, kutilmagan obrazli ifodalarni tushinish kerak. Unda go‘zallik tasviri misrama-misra o‘zgacha manzaralarda tovlanadi:

*Yerda: novda, gul, barglar,  
Aksi kashta singari.  
Sel unutgan ko ‘lmaklar  
Misli oyning singani.  
Yonadi parcha-parcha.  
Shabnam naq el sochgan cho ‘g‘.  
Har nurda shodlik qancha ,  
Har soya sirga to ‘lig‘.*

”**Sel unutgan ko‘lmaklar misli oyning singani**” misralaridagi chiroyli o‘xshatishdan tashqari ”Sel unutgan ko‘lmak” obrazli ifodasi, har birida oy aks etayotgan shabnam tomchilari el sochgan va parcha-parcha yonayotgan chog‘ga o‘xshashligi haqida o‘yga tolishga, uning tagiga etishga o‘quvchilarni odatlantirish lozim. Samimi tuyg‘ular ifodasi bo‘lmish she’rdan hayratga tusha oladigan, chinakam she’riy satrlar bag‘ridagi sehrni his qilishga qodir o‘quvchilar ma’naviy olamini shakllantirish adabiy ta’limning bosh maqsadidir.

”Oydinda” she’ri bilan avval o‘rganilgan ”Sen qaydasan yuragim”, ”Ne baloga etding mubtalo”, ”Sensiz” asarlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni aniqlash lozim. Shoiraning barcha asarlariga ham tuyg‘ularning po‘rtanali ifodasi, kechinmalarning tabiiyligi xos. Ayni vaqtda, ”Oydinda” she’rida fojiaviy ruh o‘rnini quvonch, hayrat tuyg‘ulari egallagani va bu holat o‘zgacha ifodani talab etgan.

Zulfiya she'rlarini o'rganishga ajratilgan ikkinchi soat oxirida lirika haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, shoiraning barcha she'rlari qaytadan tahlil etilib, yodlashga berilganlari so'rab, baholanadi. Badiiy adabiyotning turlari haqida oldingi sinflarda shakllantirilgannazariy bilimlarga tayangan holda lirik asarlarning o'ziga xosligi to'g'risida ma'lumot beradi. Lirik asarlar ham aslida voqelikning aksi. Lekin bu tur asarlarda voqelik muallifning his-tuyg'ulari orqaliaks ettiriladi. Ya'ni lirik asarlarda voqelikning o'zi emas, balki uning muallifga ko'rsatgan ta'siri ifodalanadi. Masalan, Zulfiyaning hijron taronalarini ifodalovchi she'rlari Hamid Olimjonning halokatini tasvirlashga emas, balki o'sha halokat shoira qalbida qanday kechinmalar paydo qilgani-yu, o'sha kechinmalarning darajalarini ko'rsatishga bag'ishlangan. Agar vaqt imkon bersa, o'qituvchi lirik turning g'azal, ruboiy, tuyuq, marsiya va boshqa janrlari haqida ham o'quvchilarga tushuncha berishi mumkin.

To'plamlariga kirgan she'rlarida hijron, sevgi, sadoqat, vatan, o'lim, tong, hayot, umr, tinchlik, dunyo, yurtdoshlarining shodligu qayg'ulari, iztiroblarini o'ziga tegishli dard sifatida talqin etdi. Ayniqsa, shoira she'rlarida ayollarga xos nafis, latofatli, jozibali his-tuyg'ular hukmron. She'rlarida samimiylilik kuchli. Mehribon onaning hamxo'rligidan tortib, Ona-Vatanni asrab-avaylashgacha bo'lgan umuminsoniy g'oyalar etakchilik qiladi.

1999-yil 10-iyundagi Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qoilab-quvvatlash to'g'risidagi Farmonda so'z san'atkorining ko'p yillik xizmatlari e'tiborga olinganligi haqida- gi ma'lumot bilan bogiiq «Zulfiyaxonim qizlari» tadbirini o'tkazish ham shoira haqidagi taassurotlarini boyitishda katta ahamiyatga egadir.

Zulfiya ijodiga bag'ishlangan yakuniy mashg'ulot so'ngida ritorik so'roqqa doir nazariy ma'lumot berish maq sadga muvofiqdir. Chunki ritorik so'roqda so'zlovchi tinglovchidan javob talab qilmaydi. Ritorik so'roq she'riyatda his-hayajon bilan aytildi va ular so'roqni emas, balki biror voqeа-hodisani tasdiqlash

va inkor etish uchun ishlatiladi<sup>25</sup>. Shuning barobarida, javob savolning ichida yashiringan bo‘ladi. Zulfiya she’rlarida ritorik so‘roqqa misol bo‘ladigan parchalar ko‘plab uchraydi va she’rlarining jozibasini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, alohida-alohida yozilgan she’rlami bir-biriga qiyoslash ham ijobjiy natija beradi. Chunki Zulfiyaning hijron mavzusiga bag‘ishlangan she’rlari tuzilishi jihatidan har xil bo‘lgani bilan, mazmun jihatidan bir-birini to‘ldiradi. Deyarli barcha she’rlarining bosh lirik qahramoni Hamid Olimjon xotirasi bilan bog‘liqdir.

Zulfiya respublika Davlat Mukofoti sovrindori, O‘zbekiston xalq shoirasi, xalqaro «Nilufar» mukofoti, Mehnat Qahramoni unvoni va «Do‘stlik» ordeni sohibasidir.

Ozod Sharafiddinov shunday yozadi: “*O‘zbekistonda ham Zulfiyaning ijodiy kechalarida ko‘p qatnashdim. Yaypanda, Popda, Marg‘ilonda, Toshkentda, Qo‘qondagi bir uchrashuv ham g‘oyatda maroqli bo‘lgan edi. Qo‘qonliklar shoiraga siyohdonsov-g‘a qilishdi. "Bu siyohdon Nodirabeginning siyohdoni. Nodirabegin sizga qalamini ham meros qoldirgan. Siz Nodirai davronsiz. Nodira aytolmay ketgan qo‘shiqlar sizning qalamingizdan to‘kilsin" deya lutf qilishdi. Zulfiya opaning dovrug‘i butun jahon bo‘ylab taralgan edi. Qaysin Quliyev, David Kugultinov, Mustay Ka-rim kabi ulkan san’atkorlar uning yaqin do‘sti edi, u "Nilufar" xalqaro mukofotning, Neru nomidagi xalqaro mukofotlarning sohibasi bo‘lgan edi. Lekin mukofot-u unvonlar orasida bittasi bor ediki, bu unvon bilan Zulfiya opa alohida mag‘rurlanardi. U O‘zbekiston xalq shoirasi edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, "Baxtim shulki, o‘zbekning Zulfiyasiman" deya xitob qilgandi*<sup>26</sup>.

Zulfiya opa o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos bir mакtab yaratgan edi. Uning shogirdlari ko‘p edi. Bulardan ayrimlari — Oydin Hojiyeva, Qutlibeka Rahimboyeva va boshqalar bugun Zulfiya opaning chirog‘ini so‘ndirmaslikka

<sup>25</sup> Аскарова М., Косимова К., Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989.

<sup>26</sup> Шарафиддинов О. Қалбимизга яқин шоира. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт, 1968 йил.

harakat qilib, samarali ijod qilmoqda. Shoira shogirdlari bilan birga go‘zal bir she’riyat chamanini yaratib ketdi.

## **2.2. Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan tadbir ssenariysini tayyorlash va uyushtirish**

Biror yozuvchi yoki shoirning tavallud kuniga, ijodiga bag‘ishlangan adabiy kecha yoki adib bilan uchrashuv kechasi o‘z mazmunida ma’ruza, she’rxonlik, sahna ko‘rinishlari, qo‘shiqlarni aks ettiradi. Demak, tadbirga ko‘riladigan tayyorgarlik ishlari ma’ruza matnini tuzish, she’r va qo‘shiqlar tanlash, ssenariylar yozish, sahnalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi<sup>27</sup>.

### **Vafo va sadoqat kuychisi O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya tavalludining 103 yilligiga bag‘ishlanadi**

Zalda “Bahor valsi” kuyi taraladi. Sahnaga ikki qiz-boshovcilar chiqib kelishadi.

1-boshlovchi: -Assalomu alaykum, adabiyot va she’riyat muxlislari. Adabiy kechamizning aziz mehmonlari. Bugun biz xalqimizning atoqli va ardoqli shoirasi, O‘zbekiston xalq shoiri “Nilufar”, Javoharla’l Neru nomidagi mukofotlar sohibasi Zulfiya Isroilova tavalludining 101 yilligini keng nishonlayapmiz.

2-boshlovchi: Zulfiya ijodi boy, rang-barangdir. Shoira ellikdan ziyod kitob muallifi. Uning jo‘shqin lirikasi, sevgi va sadoqati, tinchlikni ulug‘lovchi dostonlari, hayotiy ocherklari ehtirosli publitsistikasi, go‘zal tarjimalari, librettolari o‘zbek adabiyotining xazinasiga qo‘shilgan bebaho durdonalardir.

### **Zulfiya**

1-boshlovchi: Zulfiya Vatanimiz jamoliga boqib to‘ymaydi. Uni baland tog‘lar, bahor faslining go‘zalligini o‘zida mujassam etgan gulzorlar, bog‘-u rog‘lar maftun etadi. U erda ungan har bir giyohga, bog‘bon mehnatiga mehr bilan boqadi. Bulbullar xonishi uni o‘ziga rom etadi.

---

<sup>27</sup> Р.Ниёзметова. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси. –Тошкент: фан, 2007. 88-бет.

2- boshlovchi:

Bahor tongi tiniq va oppoq,  
Borliq to‘lgan gular hidiga.  
Hislar uyg‘oq, tabiat uyg‘oq,  
Uyg‘un bo‘lib kishi diliga.

E’tiboringizga shoira she’rlaridan namunalarni o‘quvchi qizlarimiz havola etadilar.

1-boshlovchi: Zulfiya yuragida adabiyotga, she’riyatga ilk bor havas uyg‘otgan inson onasi Xadicha aya edi.

2-boshlovchi: “Onamning qanchadan-qancha qo‘sishiq va afsonalari, doston va ertaklarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur bag‘ishlar, o‘ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi”, - deydi u o‘z xotiralarida.

1-boshlovchi:

Suv oqadi allalab tunni,  
Hamma uxlari, uyda men uyg‘oq.  
Parcha qog‘oz, kichik bir qalam,  
Boshim uzra porlaydi chiroq.

2-boshlovchi:

Bunda qancha xayol, qancha kuy,  
Men berilib qulq solaman.  
So‘z topolmay ifodasiga  
Rang axtarib shishib qolaman.  
-Zulfiya qalamiga mansub “Bog‘bon”, “Men chizolmagan surat” she’rini rassom qizlar nigohi bilan o‘qiymiz.

1-boshlovchi: - Taqdir shoirani o‘ziga munosib yor bilan siylagandi. Zulfiya va Hamid Olimjon uzukka ko‘ qo‘ygandek bir-biriga munosib edi.

Ular 1936-yil bahorida lola sayliga chiqishadi. Oradan bir yil o‘tgach Hamid Olimjon o‘sha sayl soniyalarini xotirlab “Eng gullagan yoshlik chog‘imda” she’rini yozgan edi.

2-boshlovchi:

Eng gullagan yoshlik chog‘imda  
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.  
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,  
Shunda qalbim tanidi yorni.

(*Hozir ana shu she’r bilan aytildigan qo‘shiqni tinglaysiz.*)

1-boshlovchi:

Garchi yillar changi har nega qodir,  
Meni qilolmadi yodingdan nari.  
Yana huzuringda turibman, shoir,  
Qo‘limda bir quchoq bahor gullari.

2-boshlovchi:

Ajab, qarta yosh yoq bu kun ko‘zimda,  
Ko‘ksimda yo‘q zarra alamdan tugun.  
G‘am emas, shodlik bor qara ko‘zimda,  
Seni qutlagani kelganman bugun.

**(sahnaga Hamid Olimjon va Zulfiya chiqib keladi)**

Hamid Olimjon:

Janub kechasida  
Sen bo‘lmasang, shu och to‘lginlar  
Ko‘rinmasdi sira ko‘zimga.  
Sen bo‘lmasang, o‘zimning ko‘nglim  
Kirmas edi aytgan so‘zimga.  
Sen bo‘lmasang, etmasdi xursand  
Suv ustida suzib yurgan oy.  
Hamisha sho‘x, hamisha baland.

Yulduzdag'i jon yoqar chiroy.  
Qarashlaring tinchimni olib,  
Chertib ketdi qalbim torini,  
Shundan keyin sezdim yurakda  
Shuncha kuchli o'tning borini.  
Aytib ber-chi, shuncha sevganlar  
Bo'lganmikan mencha baxtiyor?  
Aytib ber-chi, qaysi qiz burun  
Sevib, bo'lgan umid bilan yor?  
Zulfiya:  
Ne baloga etding mubtalo?  
O'tdi oylar g'am bilanoqib,  
Dil topmadi zarra tasallo.  
Firog'ingda qoldim tutoqib,  
Ne baloga etding mubtalo!  
Ko'z ochgani qo'y maydi alam,  
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.  
Yupatolmas kitob va qalam,  
Misralarim ko'tarar nolish.  
Nahot shuncha ma'sum, shuncha pok  
Sevishmoqda alam bor shuncha?  
Bardosh bermas iroda, idrok,  
Tamoman lol aql, tushuncha.  
Tog'day bor deb bilgan yuragim  
Qush boshicha qolmadi chog'i?  
G'amni engarman degan sarim  
Yana ortar alami, dog'i.  
Erib ketmagandim sevgingdan,  
Bo'lmashlik-chun baxtimdan judo.

Birga qolish uchun sen bilan

Kuyaman-u bo‘lmayman ado.

2-boshlovchi: Zulfiya butun ijodi bilan o‘zi benihoya sevgan xalqi, Vatanini kuylaydi. Shu sababli she’rlarida Ona yurtning yorqin va go‘zal manzaralarini, zamondoshlarinig yaratuvchanlik qudratini muhabbat bilan tarannum etdi.

1-boshlovchi: - Navbat yurt manzaralarini tarannum etuvchi she’rlarga.

1-boshlovchi:

Go‘zal tuproq uzra quyildi oqshom,

Kunduz olar dam.

Jo‘shqin mushoira etadi davom,

Do‘stim, kel, sen ham.

2- boshlovchi:

Hind tuprog‘i uzra quyilib oqshom,

Kunduz olar dam.

Jo‘shqin mushoira etadi davom,

Do‘stlar bo‘lib jam.

1-boshlovchi: -Zulfiyaning turli xalqaro simpoziumlar, konferensiylar va adabiy uchrashuvlarda faol ishtirok etib kelgan. Uning she’rlari bir qancha tillarga tarjima qilinib, nufuzli minbarlarda yangragan. Shoiraning “Mushoira” she’ri ham jahon adabiyoti durdonalaridan.

2-boshlovchi: Zulfiyaning ovozi va parvozini, betakror ijodini jahonning buyuk yozuvchilari, allomalari yuksak darajada qadrlab, unga hurmat-e’tibor, ehtirom ko‘rsatishgan.

1-boshlovchi :-Endi shoira Zoya Tumanovaning Zulfiya ijodi va siyosini tarannum etuvchi “Yurakdan porlagan so‘z” deb nomlanuvchi nasriy she’rini tinglang.

Yurakdan porlagan so‘z

Asr bo‘roni, urush momaqaldirog‘i guldurar.

Iztiroblar quyunida yuraklar ingrar...

Yer qattiq, ammo uning ham fig‘oni falakka chiqar.

Portlash va gumburlash dahshati aro bir ovoz qulqoqqa chalinadi. Unda zaminningjarohati, quvvati, undaadolat uchun jonini tikkjan jangchining shijoati, unda-vafo va sodiqlik, umidning o‘chmas olovi jamuljam.

U- Zulfiyaning ovozi. Olchalar bir saf kelinday to‘y libosida. Yuksaklaklar qo‘ynidan adir etaklaridagi lolalar anor donalariday ko‘rinayotir. Maysalardagi yomg‘ir durlari yaltiraydi. Ufqlardan ufqlarga kamalakning beqasam ko‘prigi tashlangan. Qushlarning chuldirashi, subhidamning ipak nafaslariga to‘lib, borliqning mastona va g‘olib navolari-la tong yoildi.

O‘zbek tuprog‘idagi bahorning tashrifi bu!

Bu- Zulfiyaning so‘zi!

Osmon og‘ushida paxtazor ummoni chayqaladi. Xalq o‘zining mangulik qasrini, Vatanida abadiyat gulshanini yaratmoqda. Orzular qanot qoqmoqda. Insonning o‘tkir nigohi fazo yaylovlariga intilmoqda.

Bu- Zulfiyaning yurakdan porlagan so‘zi!

Mana u- hayotning yuksak cho‘qqisiga erishgan Ayol. Qora qoshlarning nafis chimirilishi, ko‘zlarining chaqnab turishi jozibali. Orom bilmagan yuragi go‘zal. U- chaqnayotgan chaqmoqni ilib olmoqqa tayyordek jasoratli boqadi. Boshga tushgan og‘ir kulfatlarni mardonavor engib o‘tgani uchun shodliklarga oshkor boqadi u.

U- hayotning, cheksiz muhabbatning manbai bo‘lgan Ona! Odamlarga taqdirdagi Momo Havo, olam tashvishini o‘ziniki bilgan tinchimas qalb!

U o‘zbek xalqining qizi!

U o‘zbek xalqining qo‘shig‘i!

U- Zulfiyaning qalbi!

1-boshlovchi:

- Salom, mening aziz dugonalarim,

Azizim, lobarim, chevarim qizlar.

Ey toza qalbimning oshnolari,

Kuylarim ilhomni, sevarim qizlar.

2-boshlovchi:

- Men Hofizday ulashmayman yurt!

Iste'dodim, qalbim sizlarga.

Yaxshi nomim, baxt-sevinchim but.

Barchasini beray sizlarga.

Hamid Olimjon “O'rik gullaganda” she'ri . Nasiba Abdullayeva ijrosida . raqqosa qizlar xirom etadilar.

1-boshlovchi: Zulfiya ko‘p yillar davomida O‘zbekiston xotin-qizlarining nashri ”Saodat” jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishladi. Ana shu davrlarda yoshlarga ustozlik qilib, qaynoq qalblarni she’riyarning sehrli gulbog‘lariga etaklab kirdi. Prezidentimizning 1999-yil 10-iyunda qabul qilingan “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq adabiyot, san’at, madaniyat, fan, ta’lim sohalarida faol, tashabbuskorqizlar ushbu mukofotga sazovor bo‘lmoxda. Ayni shu kunlarda ularning soni 200 nafardan oshgani, ayniqsa, quvonarli.

2-boshlovchi: U doimo barhayot. Ha, Zulfiya ozod yurtimizda ijod qilayotgan yuzlab qizlarimizning ham ustozi, ularning dardini, orzu-umidlarini, sevgi-muhabbatini , hijron-sadoqatini shoirona qalb bilan kuylagan, yosh qalblarni o‘ziga eng yaqin do‘sst, dugona, sirdosh deb bilgan ijodkordir. Maktabimizda ham iste’dodli, iqtidorli, adabiyot, san’at, sportni seuvuchchi, tashabbuskor, bilimdon qizlarimiz bisyor. Mathamat, shoira qizlarimiz ijodidan bahramand bo‘ling.( shoira qizlar o‘z ijod namunalaridan o‘qishadi.)

1-boshlovchi:O‘quvchi qizlarimiz orasidan “Zulfiyaxonim izdoshlari” ning etishib chiqishi bizni mamnun etadi, albatta. Jamiyatning qaysi sohasi bo‘lmox qizlarga, ayollarga berilayotgan e’tibor ma’nani va jismonan sog‘lom avlodning voyaga etishishiga yo‘l ochadi.

2-boshlovchi: Hech narsa davlat va millatni butun dunyoga sportchalik tez tanita olmaydi. Butun jahon miqyosida bo‘lib o‘tayotgan musobaqlarda g‘alaba

qozongan sportchi qizlarimiz sharafiga davlatimiz madhiysi jo‘rligida yurtimiz bayrog‘i ko‘tarilmoqda. Sahnada sportchi qizlar.

1-boshlovchi: Kechamiz Zulfixonim tavalludining 103 yilligini nishonlash maqsadida tashil etilgan ekan, o‘quvchi qizlarimizning shoira hayoti va ijodi yuzasidan bilimlarini sinab ko‘moqchimiz. Uch nafar qizni sahnaga taklif etamiz. Ular Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan o‘rgangan bilimlari asosida qog‘ozga ma’lumotlarni yozadilar. Eng ko‘p ma’lumot bergen o‘quvchiga maxsus sovg‘amiz bor. Marhamat!

2-boshlovchi: Qizlar mana sizga qog‘oz va qalam. Siz ma’lumotlarni yozib bo‘lguningizga qadar “Dilxiroj” raqsini tomosha qilamiz.

1-boshlovchi: Qizlar ma’lumotlarni yozib bo‘ldilar. Eng ma’lumot bergen o‘quvchi \_\_\_\_sinf o‘quvchisi\_\_\_\_\_. Mana bu sovg‘a Siz uchun. Zulfiya ijodi doimiy hamrohingiz bo‘lsin.

2-boshlovchi: San’at inson qalbining dil torlarini chertib, uni yashartiradi. Raqs orqali insonning ichki tuyg‘ulari ifoda etiladi. (“Olti xalfa” qo‘shig‘i)

1-boshlovchi: Vafo va sadoqat kuychisi-Zulfiyaxonimga atab shoirlarimiz go‘zal she’rlar bitib, uning ijodiga cheksiz hurmatini izhor etdilar.

Oftob ziyosidan munavvar olam,  
Nurga intiladi tahna nigohlar,  
Iqbolidan mamnun, baxtiyor odam,  
Chapak chalib qutlar, gular, giyohlar,  
Gulgun saodatim sizziz, shoiram!

2-boshlovchi:  
Mehnatdir hamisha umrga mezbon,  
U-obro‘, u-shuhrat, mangu obida.  
O‘zni korib xushnud baxt kitobida.  
Bu-halol mehnatim sizziz shoiram  
Oltin qalam berdi qo‘larga zamon.  
(Navbat Zulfiyaxonim haqidagi she’rlarga)

1-boshlovchi:

Men quyoshdan uzib beray senga bir parcha,  
Yuragimdan uzgan singari...

( Nay navosidan bahramand bo‘ling.)

1-boshlovchi:

Hayot kitobini bexos varaqlab,  
Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim.  
Tabussum o‘rnida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo‘lsa telbacha suydim.

2-boshlovchi:

Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim,  
Hech kimda ko‘rmayin umrimga o‘xhash.  
Suydim, erkalandim , ayrildim kuydim,  
Izzat nima-bildim, shu-da bir yashash.

1-boshlovchi:

-Aziz do‘stlar! Siz tinglagan “Men o‘tgan umrga..” she’rida shoira o‘zi yashagan umrga sarhisob bergandek bo‘ladi. Zotan, Zulfiya umrning azizligini, hayotning go‘zalligini, har qanday og‘rliklarni matonat bilan engib baxtli bo‘lish mumkinligini o‘z asarlari ruhiga singdirib yborgan.

2-boshlovchi: haqiqatan ham, Vatani va xalqiga xizmat qilishni o‘ziga baxt deb bilgan shoira Bahor, Baxt, Shodlik, Vafo, Sadoqat, ona-Vatan kuychisi bo‘lib, qalbimiz to‘rida abadiy yashaydi. Zulfiyaning 101 yillik tavallud tantanalari quyoshli O‘zbekistonimizning shahar va qishloqlarida, barcha ta’lim maskanlarida davom etadi.

### **III bob. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuzasidan tajriba-sinov ishlari**

#### **3.1. Zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish usullari**

Bugungi kunda an’anaviy ta’limda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollardan biroz chekingan tarzda ta’lim jarayonida ham darslarni yanada qiziqarli va yangi axborotlarga boy tarzda tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedik vositalardan keng foydalanilmoqda. Bu hol o‘z navbatida ona tili va adabiyot darslarida texnik vositalarning turli ko‘rinishlaridan foydalanish imkonini bermoqda. Bularning natijasida o‘qitish jarayonidagi elektron ko‘rgazmali vositalar degan atama shakllandi. Zero, ta’lim-tarbiya zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib boradigan uzlusiz jarayondir. Buning uchun bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida fan o‘qituvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Mamlakatimizdagи qariyb barcha ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi, multimediya vositalari va boshqa jihozlar bilan to‘liq holda ta’minlangan, har bir o‘qituvchining “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalini orqali har bir dars uchun kerakli ma’lumotlarni qidirishi, ularni qayta ishlashi va ta’lim jarayoniga tatbiq etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi paytda barcha o‘qituvchi-murabbiylarimiz oldida turgan eng muhim masala ulardan unumli, maqsadli va natijali foydalanishdan iboratdir.

“Barchaga ma’lumki, ko‘rgazmalilik ta’limning eng qadimiylaridan o‘tgan samarali tamoyillaridan biri, tabiiy, bugun ham bu tamoyil o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Ammo ilgari o‘qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibrido shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-bo‘yoqlardan foydalanib o‘zi yoki kimningdir ko‘magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, kompyuterlar, multimedia beminnat o‘z bo‘yniga olgan”<sup>28</sup>.

Bugungi kunda axborot almashinuvi uzlusiz ta’lim tizimining barcha turlari faoliyatiga, ya’ni umumiyl o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limga ijobiyl

<sup>28</sup> Махмудов Н. Замонавий она тили. // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2013. 5 сон. – Б. 7.

ta'sir etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy qilinishi, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish, fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

“Kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o'quv jarayoni:

- butun o'quv jarayonida kompyuter texnikasi vositalarini qo'llashni;
- o'quv jarayonini har tomonlama qamrab olishni;
- texnikaviy, dasturiy, tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotni bir turli hamda bir xilligini;
- har xil sharoitlarga qo'llashni moslashtirishni;
- yuqori didaktik va iqtisodiy samaradorlikni;
- yangi usullar asosida ta'limni, fan va ishlab chiqarishning o'zaro munosabatlarida integratsiyalashni hamda mutaxassislarining tayyorgarligining oldindan ilgarilab ketishini ta'minlashni talab qiladi”<sup>29</sup>.

Haqiqatan, ushbu talablar kompyuter texnologiyalari bilan tashkil etilayotgan ta'lim jarayonining asosini tashkil qilishga katta yordam beradi.

Elektron o'quv-metodik majmualar, ya'ni elektron ko'rgazmali vositalar davlat ta'lim standartlariga mos keladi, sinf va auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta'limning o'quv-metodik ta'minotini o'zida mujassamlashtiradi.

“Elektron o'quv-metodik majmua zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik, interaktiv majmuasidan tashkil topadi. Elektron o'quv-metodik majmualar an'anaviy majmualardan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalarining birligi sifatida namoyon bo'ladi”<sup>30</sup>.

Ta'limning elektron vositalari zamonaviy axborot texnologiyalari orqali joriy etiladi. An'anaviy darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va boshqa nashr

<sup>29</sup> Фаязова М. Р. Узлуксиз таълим тизимида ахборот технологияларидан фойдаланиш. // Узлуксиз таълим. – Тошкент, 2013. 1 сон. – Б. 58–59.

<sup>30</sup> Маматов Д. Н., Ражабова С. Й. Таълимда электрон ўқув-методик мажмуалардан фойдаланиш. // Мактаб ва хаёт. – Тошкент, 2012. 7–8 сон. – Б. 30.

materiallarining elektron formatdagi nusxalari elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda manba sifatida ishlataladi.

Elektron ko‘rgazmalilikda aynan bir o‘quv materiali bir qancha vositalar, masalan, slaydlar, elektron nashr, audio, video, CD-disklar ko‘rinishida ta’lim oluvchilarga taqdim etilishi mumkin. Bu turdagи o‘qitishning har bir vositasi o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega bo‘ladi. O‘qituvchi bunday imkoniyatlarni yaxshi bilishi va o‘quv materiallarini ushbu vositalar bo‘yicha taqsimlay olishi kerak bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari o‘qituvchiga ma’ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o‘tkazish, animatsiya, slaydlar, turli xil ko‘rgazmali materiallar yaratishga imkon beradi. Ushbu texnika vositalaridan darsda to‘g‘ri foydalanilsa, ular ta’lim oluvchilarning so‘z boyligini oshiradi, talaffuzning ravon bo‘lishiga, eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida yozuvchi va shoirlar hayoti, ijodini o‘rgatishda, ularning asarlaridan zarur ma’lumotlarni o‘quvchilarga havola etishda ham kompyuter texnologiyalari bizga beminnat yordamchidir.

Bundan tashqari, internet tarmoqlarida deyarli barcha yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va ijodi bo‘yicha ma’lumotlar, ularning asarlari asosida suratga olingan videofilm, telefilm, “Umr daftari” turkumida tayyorlangan elektron materiallar ham mavjudki, bular adabiyot darslarini har tomonlama qiziqarli tashkil etishda o‘qituvchiga katta yordam beradi.

Metodist olima T.Niyazmetovaning “Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish” degan maqolasida<sup>31</sup> **7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, “Umr daftari”** deb nomlangan ko‘rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o‘quvchilar e’tiboriga havola etish xususida maslahatlar beradi.

“Slayd – ma’lum bir o‘lchamga ega bo‘lgan muloqot varaqlari sanaladi. Ular muayyan bir mavzuni yorituvchi matn bo‘lib, bu jarayonga yordam beruvchi

---

<sup>31</sup> Ниязметова Т.Р. Адабий таълимда компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиш// Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 1-кисм. – Т: Низомий номидаги ТДПУ, 2006. – Б. 6-10.

chizmalar, grafiklar, fotosuratlar, animatsion effektlar, video tasvirlarni o‘z ichiga oladi”<sup>32</sup>.

**Dars jarayonida o‘quv video materiallardan foydalanish.** Darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishda turli mavzulardagi ta’limiy-tarbiyaviy videolavha, rolik, kino va multfilmlarning ham alohida o‘rni bor. Kinolarni darslarda boshidan oxirigacha qo‘yish shart emas, balki uning ayrim qismlarini qo‘yib tahlil qilish yaxshi natijalar beradi. Kinofilmlardan foydalanishning asosiy afzallik tomoni shundaki, unda ta’lim oluvchilar asarlar bo‘yicha ko‘proq va aniqroq obrazli ma’lumotlar oladilar. Bunday obrazli ma’lumotlar xotirada uzoq vaqt saqlanadi. Hozirgi kunda internet tarmog‘idagi ta’lim portallarida ona tili va adabiyot darslarida o‘rganiladigan mavzular uchun ham juda ko‘p video materiallar mavjud. Kompyuter orqali ko‘rsatilgan jarayonlarni multiplikatsiya qilib ko‘rsatish, tezlashtirib yoki sekinlashtirib namoyish etish, tegishli qism ko‘rib bo‘lingach, tasvirni to‘xtatib, asosiy masalani muhokama qilish, so‘ngra yana namoyishni davom ettirish imkoniyati mavjud.

Ta’lim jarayonida elektron vositalardan foydalanish jarayonida ta’lim oluvchilarga kerakli bilimlar hajmini berish zarur bo‘ladi. Dars davomida amalga oshiriladigan barcha ishlarni chambarchas bog‘liqlikda amalga oshirish kutilgan natijani beradi.

Adabiyot fanlarini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ya’ni mavzular bo‘yicha slaydlar tayyorlash, elektron multimedia darsliklarini yaratish, elektron nusxa, elektron lug‘at, ensiklopediya, audiodastur elektron lingafon kurslari, bir yozuvdan ikkinchisiga o‘girish dasturlari, elektron virtual kutubxona kabi dasturlarni qo‘llash, o‘quvchilarning internet tarmog‘idan foydalangan holda mustaqil ta’lim olishini ta’minlash, videoma’ruza, videokonferensiyalarni tashkil etish dars samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim-tarbiya zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib boradigan uzluksiz jarayon ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bugungi keskin raqobat

---

<sup>32</sup> Тошева О. Тақдимот материалларидан фойдаланиш усуллари. // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2012. 12-сон. – Б.: 28.

muhitida faqatgina izlanuvchan, yangiliklardan boxabar bo‘lgan o‘qituvchigina o‘z oldida turgan ulkan vazifalarni bajarishi, xalqimiz orzu qilgan sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazishda o‘zining beqiyos hissasini qo‘sha olishi mumkin. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, internet ularning yaqin yordamchisiga aylanishi kerak.

TDIU akademik litseyida o‘tkazilgan pedagogik amaliyot davomida ham deyarli barcha darslarda elektron ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni olib bordik. Albatta, bularning barchasi o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatdi, chunki dars mashg‘ulotlari uchun tuzilgan ta’lim texnologiyalari, texnologik xaritalar va dars ishlanmalarida foydalanadigan elektron ko‘rgazmali vositalarning turlari hamda ulardan foydalanish vaqt me’yorlarini ko‘rsatdik. Dars mashg‘ulotlarining ishlanmalaridan namunalar beramiz.

### **3.2. Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan ochiq dars ishlanmasi**

Uzluksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklarida Zulfiya hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga e’tibor berilgan, shoiraning yuksak badiiyat namunasi bo‘lgan she’rlaridan namunalar keltirilgan.

Zulfiyani doston janridagi ijodiy izlanishlari ham tahsinga loyiq. Shoira turli yillarda xilma-xil mavzularda “Uni Farhod der edilar”, “Ikki o‘rtoq”, “Mushoira”, “Vodil yulduzları”, “So‘roqlaydi shoirni she’rim”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi asarlar yaratib, o‘zbek dostonchiligi an'analarini rivojlantirdi. Shoiraning “Quyoshli qalam” asari dostonchiligidan o‘ziga xos quvonchli voqeа bo‘ldi. Dostonda ulug‘ adib, sevimli shoir va donishmand olim Oybekning yorqin obrazi zo‘r hayajon va katta muhabbat-u, ixlos bilan chizib berilgan.

Doston “Hayol qanotida”, “Yaratish dardi”, “Navoiy yuragi urib turibdi”, “Daryoday uyg‘oq” singari qismlardan iborat. Ularda hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirgan. Dostonda voqeа bosh qahramon Oybekning o‘limi tasviri bilan tugasa-da, asarda hayotbaxsh ruh, quyoshli qalam sohibi Oybek domlaning mangu barhayotligiga komil ishonch ruhi balqib turadi:

*Buyuk bu uy uni etarkan ardoq  
"Oybek ishlayapti!" - deydi nasllar...  
O'z ko 'rkini ko 'rib tasvirlarida  
"Oybek ishlayapti!" - deydi asrlar.*

Zulfiya ijodi “Xotiram siniqlari” (1995) dostoni o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Doston mustaqillik davrining mahsuli bo‘lib, unda mustaqillik dil-dildan ulug‘langan. Shoira asarda umri davomida o‘zi boshidan kechkan yaxshi va yomon kunlarini eslab, hayot va jamiyat taraqqiyoti haqida, baxt va badbaxtlik to‘g‘risida teran poetic mulohaza yuritgan. Sho‘rolar davridagi achchiq hayot qoldirgan dard-u alamlarini, orzu-istiklarini doston misralari qat-qatiga to‘kib slogan. Shu tarzda el-yurt ko‘ngliga harorat baxsh etgan. Mustaqillikning buyuk ne’mati haqiqiy hurriyatni, chin erkinlikni katta quvonch bilan olqishlagan:

*Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding...  
Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.  
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –  
Sening nasimingga qalbimni titdim  
Kelding-ey, Istiqlol istiqlol bo‘lib,  
Qalbimga nasiming bilan yo ‘l solding.  
Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,  
Men og ‘ir bulutdek bir yog ‘ib oldim...*

Zulfiyaning bu lirik dostonida maqsad aniq bo‘lganidek, uning ifodasi ham kam-u ko‘stsiz. Shoira yangi hayot – mustaqillik haqida hayajon bilan kuylar ekan, yangi-yangi tashbihlar, yorqin obrazlar yaratgan. Anashuning uchun ham bu lirik-falsafiy dostonni shoira ijodining o‘ziga xos gultoji desa bo‘ladi.

<b>Mavzu:</b>	<b>Zulfiya</b>
---------------	----------------

### **Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 2 soat</b>	O‘quvchilar soni 20 – 30 tagacha
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	Amaliy mashg‘ulot
<b>Amaliy mashg‘ulot rejasи</b>	<p>1. Zulfiya hayoti va ijodi      2. Zulfiya ijodining g‘oyaviy yo‘nalishi      3. Zulfiya ijodida hijron motivi      4. Zulfiya badiiy mahorati</p>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Shoiraning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, uning ijodiy g‘oyalari xususida muayyan tasavvurlar hosil qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularda she’riyatga nisbatan muhabbat uyg‘otish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘quvchilarga Zulfiya ijodi haqida ma’lumot berish</li> <li>• Shoira ijodining g‘oyaviy yo‘nalishlari xususida axborot berish va ularni misollar vositasida mustahkamlash</li> <li>• Shoira she’rlaridagi hijron motivlarini uning hayoti timsolida ochib berish</li> </ul>	<p>O‘quvchilar Zulfiya ijodi haqida ma’lumotlar oladilar      Shoira she’rlari asosida uning badiiy mahorati va g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida bilimlarga ega bo‘ladilar      Ijodkor hayoti haqida chuqurroq ma’lumotlarga ega bo‘ladilar</p>
<b>Ta’im berish usullari</b>	Ma’ruza, “Aqliy hujum” usuli, “Ha-yo‘q” usuli, test, tarqatmalar tarqatish
<b>Ta’lim berish metodlari</b>	Jamoa bo‘lib ishlash
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Darslik, qo‘shimcha qo‘llanmalar
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta’minlangan guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
<b>Monitoring baholash</b>	Test, og‘zaki nazorat; savol-javob

## Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

<b>Bosqichlar va ularning vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchi</b>	<b>O‘quvchi</b>
<b>1-bosqich Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. Darsga nisbatan o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi.
<b>2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. O‘tilgan mavzu takrorlanadi (1-ilova)</p> <p>2.2. Zulfiya hayoti bilan tanishtiradi.(2-ilova)</p> <p>2.3. Uning ijod yo‘lini o‘rgatadi.(3-ilova)</p> <p>2.4. She’rlaridan ifodali qilib o‘qiydi. (4-ilova)</p> <p>2.5.O‘quvchilarni ijodkor she’rlarining muhokamasiga tortadi.</p>	<p>2.1. Mavzuni tinglaydi, yangi mavzuga oid ma’lumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi va ularni sistemalashtiradi.</p> <p>2.2. Mavzuga yuzasidan savollar beradi va sheriklari tomonidan berilgan javoblarni to‘ldiradi.</p> <p>2.3. Ijodkor she’rlarining mavzu yo‘nalishlaridan misollar keltiradi.</p> <p>2.4. Uning badiiy va g‘oyaviy xusussiyatlarini tushunadi</p> <p>2.5.Topshiriqlarni bajarishda qatnashadi va muhokamada ishtirok etadi.</p>
<b>3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mashg‘ulotni yakunlaydi, o‘quvchilarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa. Zulfiya she’rlaridan namunalar yod olish.</p>	<p>3.1. O‘z-o‘zini baholaydi.</p> <p>3.2 Topshiriqni tushunadi va dars yuzasidan yakuniy xulosaga keladi.</p>

Mavzu: ZULFIYA

Reja:

1. Zulfiya hayoti va ijodi
2. Shoira ijodining g‘oyaviy yo‘nalishi
3. Zulfiya ijodida hijron motivi
4. Zulfiya badiiy mahorati

**Maqsad:** Shoiraning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, uning ijodiy g‘oyalari xususida muayyan tasavvurlar hosil qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularda she’riyatga nisbatan muhabbat uyg‘otish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Kun hikmati:** Bilmaslik gunoh emas, o‘rganmaslik gunoh.(Hadisdan)


## 1-ilova

Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir. U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb o‘ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan.

Zulfiyaning dastlabki she’rlari «Hayot varaqlari» nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan. Shundan so‘ng shoiraning «She’rlar» va «Qizlar qo‘shig‘i» (1938-yil), «Uni Farhod der edilar» (1943-yil), «Hijron kunlarida» (1944-yil), «Dalada bir kun» (1948-yil), «Tong qo‘shig‘i» (1953-yil), «Yuragimga yaqin kishilar» (1958-yil), «Kuylarim sizga» (1965-yil), «O‘ylar», «Shalola» kabi o‘nlab she’riy to‘plamlari chop etildi. U atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila qurgan. Biroq ular orzularga to‘la hayot kechirayotgan pallada - 1944-yili mashina avariysi tufayli turmush o‘rtog‘idan ayrıldi. Shundan so‘ng umr bo‘yi o‘z muhabbatiga sodiq qolib, Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Uning «Semurg», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida pyesa va opera librettolarini yaratadi. O‘zi ham «Quyoshli qalam», «Mushoira», «Xotira siniqlari» kabi poemalar yozadi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoiralarining she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o‘nlab davlatlarida bo‘lib, xalqaro xotin-qizlar hamda adabiyot namoyandalarining harakatlarida faol ishtirok etardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta’riflaricha «Uning jahon minbarlaridan yangragan she’rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergen». Shoiraning she’rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vietnam kabi juda ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan edi. Shoira 1997-yil 82 yoshida vafot etgan.

## Zulfiyaning she'riy to'plamlari



## Zulfiyaning poemalari

Quyoshli  
qalam

Mushoira

Xotiram  
siniqlari

Zulfiyaning Hamid Olimjon  
dostonlari asosida yaratgan  
pyesa va opera librettolari

Semurg'

Zaynab va Omon

## **Tarqatma materiallar**

### **“Aqliy hujum”**

1. Zulfiya qanday mukofotlar olgan?
2. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti qachon ta'sis etilgan?
3. Zulfiya qaysi mamlakatlarda bo'lgan va she'rlari qaysi tillarga tarjima qilingan?
4. Zulfiya qayerda tug'ilib, qachon vafot etgan?
5. Zulfiya qanday poemalar yozgan?
6. Zulfiya bilan qaysi mumtoz shoiramizning taqdiri o'xshash?
7. Zulfiya necha yoshida vafot etgan? She'riy to'plamlaridan 4 tasining nomini aiting?
8. Zulfiya qanday oilada va qachon tug'ilgan?
9. 1944-yildan so'ng Zulfiya she'rlarining etakchi mavzusi qanday bo'lgan va nima uchun?
10. Zulfiya qayerlarda o'qigan va qachon?

### **“Mozaika” metodi**

Berilgan so'zlarni tartib bilan joylashtiring va Zulfiyaning she'ridan olingan parchani yig'ib, uning qaysi she'rdan olinganligini aiting.

1. A) parvozi, nozi, Qushlarning, ellarning
- B) Salqin, gulida, bodom, saharlarda
- D) labida, Binafsha, bahor, erlarda
- E) bahor, Baxmal, vodiylarda, qirlarda

S

---

B

---

Q

---

B

---

She'rning nomi: \_\_\_\_\_

2. A) hilpiratib, sochin, jingala, Yelda
- B) O'rik, nega, to'ymaydi, gullariga
- D) u, Peshvoz, chiqmaydi, qulochin, yozib
- E) men, Nega, sho'x, nashidaga, keltirgan

O'

---

Y

---

N

---

P

---

She'rning nomi: \_\_\_\_\_

3. A) toza, ko'ksida, O'spirinim
- B) Mana, ustida, labi, o'g'lim
- D) yangi, toti, his, oshar, Kunda
- E) mayin, Qaldirg'ochning qanoti

M

---

Q

---

O'

---

K

---

She'rning nomi: \_\_\_\_\_

**"Ha-yo'q" metodi**

Berilgan savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob bering.

1. Zulfiyaning Hulkar va Omon ismli farzandlari bormi?
2. Zulfiya "Semurg" dostonini yozganmi?
3. Zulfiyaning she'rlari xitoy va yapon tillariga tarjima qilinganmi?
4. "Mushoira" poemasi H.Olimjonga atab yozilganmi?
5. "Bog'lar qiyg'os gulda" she'ri Zulfiyaga tegishlimi?
6. "Zaynab va Omon" dostoni Zulfiya qalamiga mansubmi?
7. "Zaynab va Omon" opera librettosi Zulfiyanikimi?
8. Zulfiya 1996-yilda vafot etganmi?
9. Zulfiya "Nobel" mukofotini olganmi?
10. Zulfiyaning "Yuragimga yaqin kishilar" degan she'riy to'plami bormi?
11. "O'rik gullaganda" she'riy to'plami Zulfiyanikimi?
12. Zulfiyaning Ulug'bek ismli nevarasi bormi?
13. Zulfiyaning farzandlarining ismlari Zaynab va Omonmi?
14. Zulfiya 29 yoshida beva qolganmi?
15. "Aziz tuyg'ular" degan she'riy to'plami bormi?
16. "Bekajon" jurnalida ishlaganmi?
17. Zulfiya Toshkentda tug'ilganmi?
18. U Oybek bilan turmush qurbanmi?
19. Zulfiya "Sen bahorni sog'inmadingmi?" degan she'r yozganmi?
20. Zulfiya Afrikaga borganmi?

## “Moslashtiruvchi test” metodi

Birinchi ustundagi savollarni ikkinchi ustundagi javoblarga moslashtiring.

Savollar	----->	Javoblar
➤ Zulfiyaning birinchi she’riy to‘plami qanday nomlanadi?		“Quyoshli qalam”
➤ Oybekka bag‘ishlangan poemasi		“She’rlar”
➤ Zulfiya H.Olimjonning qaysi dostoni asosida pyesa yaratgan?		“Hayot varaqlari”
➤ 1938-yilda chop etilgan she’riy to‘plami		“Xotiram siniqlari”
➤ Zulfiya qaysi jurnalda bosh muharrir bo‘lib ishlagan?		“Semurg”
➤ Zulfiya poemalaridan birining nomi		“Saodat”

### Test

- Zulfiyaning qaysi she’rida bahor qishning yoqasidan tutib shoirmi so‘roqlaydi? Shunda qish qanday yo‘l tutadi?
  - “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rida; qish xayol suradi
  - “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rida; qish ko‘z yosh to‘kadi
  - “Mushoira” she’rida; qish ko‘rpasiga o‘ralib uxlaydi
  - “Xotiram siniqlari” she’rida; qishning rangi oqaradi
- “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rida Hamid Olimjonning xayoliy siymosi qanday tasvirlanadi?
  - Quvnoq, g‘ayratli moviy ko‘zli yigit
  - Bodomqovoq, tortinchoq ijodkor yigit
  - Tepakal, o‘ychan ijodkor yigit
  - Jingalak sochli, xayolchan ijodkor yigit
- “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’ri nimaning tasviri bilan boshlanadi?
  - Qishning tasviri bilan boshlanadi
  - Kuz faslining tugashi bilan boshlanadi
  - Bahor faslining tasviri bilan boshlanadi
  - Bahor faslining tugashi bilan boshlanadi

4. "Mushoira" she'ri nechanchi yilda yozilgan?  
A) 1942-yilda C) 1939-yilda  
B) 1960-yilda D) 1958-yilda

5. Zulfiyaning quyidagi she'rlaridan qaysi biri "Aziz tuyg'ular" turkumiga kiradi?  
A) "Bog'lar qiyg'os gulda"  
B) "Bahor keldi seni so'roqlab"  
C) "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush"  
D) "Seni kuylayman, hayot"

6. Zulfiyaning ilk she'riy to'plami qachon nashr etilgan?  
A) 1930-yilda C) 1934-yilda  
B) 1932-yilda D) 1938-yilda

7. Zulfiya "Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob" deya qaysi she'rida aytadi?  
A) "Nevara"  
B) "Seni kuylayman, hayot"  
C) "Men o'yan umrga"  
D) "Qizlar qo'shig'i"

8. "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida Zulfiya turmush o'rtog'inining qaysi gulni sevishini aytadi?  
A) Binafsha C) Lolaqizg'aldoq  
B) Boychechak D) O'rik guli

9. Zulfiya "Saodat" jurnalida necha yil ishlaydi?  
A) 27 yil C) 35 yil  
B) 30 yil D) 53 yil

10. "Zulfiya" mukofoti necha xil nominatsiyalar bo'yicha qizlarga beriladi?  
A) 3 xil C) 5 xil  
B) 4 xil D) 7 xil

11. Zulfiyaning quyidagi she'rlaridan qaysi biri "Aziz tuyg'ular" turkumiga kirmaydi?  
A) "Men o'tgan umrga"  
B) "Bog'lar qiyg'os gulda"  
C) "Bahor keldi seni so'roqlab"  
D) "Nevara"

12. To'lisharmi o'lkada bahor,  
Quyosh kezar osmon ko'ksida...




Misrasi bilan Zulfiyaning qaysi she'ri boshlanadi?  
A) "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush"  
B) "Xotiram siniqlari"  
C) "Bahor keldi seni so'roqlab"  
D) "Bog'lar qiyg'os gulda"

13. "Zulfiya" mukofoti qachon ta'sis qilingan?  
A) 1996-yilda C) 1997-yilda  
B) 1999-yilda D) 1998-yilda

14. Zulfiyaning "Uni Farhod der edilar" she'riy to'plami qachon nash qilingan?

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	D	C	D	A	B	C	D	A	C	C	A	B	D	B	C	A	D	B	C

## O‘quvchilarni baholash mezonlari



Rag‘bat



Jarima

Uyga vazifa: Zulfiya she’rlaridan yod olish va savollarga javob berishga tayyorlanish.

**Uyga vazifa  
Zulfiya she’rlaridan yod olish, savol va  
topshiriqlarga tayyorgarlik ko’rish.**

## Xulosa

Zulfiya Respublika Davlat Mukofoti sovrindori, O‘zbekiston xalq shoirasi, xalqaro “Nilufar” mukofoti, Mehnat Qahramoni unvoni va “Do‘stlik” ordeni sohibnasidir.

Zulfiyaning hizmatlari munosib taqdirlangan. Shoira 1985-yilda Mehnat Qahramoni unvoniga, 1965-yilda “O‘zbekiston xalq shoirasi” unvoniga sazor bo‘di. 1994-yilda Zulfiya mustaqil respublikamizning “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Zulfiya o‘ziga xos ijodkor. Uning o‘z tili, o‘ziga xos uslubi bor. Teran fikrlovchi shoira Zulfiya hayot haqida o‘ziga xos tarzda poetik fikr yuritdi va o‘z asarlarini falsafiy mazmun bilan bezadi. Zulfiya lirkasi rus, ukrain, qozoq, ozarbayjon, tukman, qoraqalpoq, ingliz, hind, afg‘on, arab, chex, polyak, bolg‘ar, venger, mo‘g‘ul, fransuz va nemis kitobxonlari tomonidan ham o‘qilyapti.

Shoira mavzu va goyaviy yo‘nalishi rang-barang bo‘lgan she’rlarida o‘zining etuk iste’dod egasi ekanligini namoyon eta olgan. She’rlarida qo‘llanilgan tasvir usullari va vositalari, badiiy obrazlar tuyg‘u va kechinmani o‘ziga xos tarzda tasvirlashga yo‘naltirilgan. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni yuksaltirishga katta yordam beradi.

Tadqiqotimizda boblarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar quyidagicha umumlashtirildi:

Uzluksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklarida Zulfiya hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga e’tibor berilgan, shoiraning yuksak badiiyat namunasi bo‘lgan she’rlaridan namunalar keltirilgan.

Biz yuqorida she’rlar tahlilini ko‘rib chiqdik. She’rlar tahlili o‘quvchilarda ijodkorlikka havas uyg’otiladi, tahlil qilish malakasi tarbiyalanadi.

Zulfiya hayoti va ijodini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rganish o‘quvchilarda yangicha his-tuyg‘ularni. Ya’ni so‘z bilan takrorlanmas lahzalarni, onlarni she’riyat olamiga yana bir bor sayr qilishdek go‘zal damlarni baxsh etadi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni uyushtirish orqali Zulfiya hayoti va ijodi yuzasidan darsdagi ma'lumotlarni yanada kengaytirishga imkon beradi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda adabiyotga havas tuyg‘usi tarbiyalanadi.

Bundan tashqari, internet tarmoqlarida deyarli barcha yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va ijodi bo'yicha ma'lumotlar, ularning asarlari asosida suratga olingan videofilm, telefilm, "Umr daftari" turkumida tayyorlangan elektron materiallar ham mavjudki, bular adabiyot darslarini har tomonlama qiziqarli tashkil etishda o'qituvchiga katta yordam beradi. 7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, "Umr daftari" deb nomlangan ko'rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o'quvchilar e'tiboriga havola etish mumkin. Bu ishlarning samarali amalga oshirishda asosiy omil o'quvchilarning o'z mehnatlari samarasini, go'zalligini ko'rishlari, his qilishlaridir.

Iste'dodining qudrati tufayligina muhabbat haqida yozmagan, balki qalbini o'rtagan shaxsiy fojiasining iskanjasidan chiqmoq, har kuni tortayotgan hijron azoblarini o'zgalar bilan o'rtoqlashmoq maqsadida qalam surgan shoira Zulfiyaning she'rlari o'quvchilar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimi dastur va darsliklarida Zulfiya hayoti va ijodiy merosini o'rganishga e'tibor berilgan, shoiraning yuksak badiiyat namunasi bo'lgan she'rlaridan namunalar keltirilgan. Istardikki, kelajakda yaratiladigan dasturlarda shoira ijodiga ajratilgan dars soatlari yanada kengaytirilsa, darslik va majmualarda keltiriladigan she'rlarining miqdori ko'paytirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

1999-yil 10-iyundagi Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq adabiyot, san'at, madaniyat, fan, ta'lim sohalarida faol, tashabbuskor qizlar ushbu mukofotga sazovor bo'lmoqda. Ayni shu kunlarda ularning soni 200 nafardan oshgani, ayniqsa, quvonarli.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibalari sonining kengayganligi va magistratura

mutaxassisligiga imtiyozli kirish imkoniyatining berilishi shoira xotirasiga hurmatdir.

Jizzax shahrida o‘zbek tili va adabiyotini chuqur o‘qitishga ixtisoslashgan Hamid Olimjon va Zulfiya ya nomidagi mакtab-internat ochildi. O‘zbekzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-iyundagi «Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan mакtab-internatni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori bilan bu ezgu maqsad amalga oshirildi. O‘tgan besh oy davomida o‘zbek tili va adabiyotini chuqur o‘qitishga ixtisoslashgan mакtab-internat uchun 4 qavatli zamonaviy bino qurib bitkazildi. Binoda keng va yorug‘ sinfxonalardan tashqari 100 o‘rinli yotoqxona va oshxona, faollar zali hamda boshqa xonalar bor. O‘quvchilar jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun sport maydonchalari barpo etilgan. Joriy yil 1-oktabrdan faoliyat boshlagan mакtab-internatning 5-, 6-, 7-, 8-sinflariga barcha tuman va shaharlardan sinov asosida 120 nafar iste’dodli o‘g‘il-qiz o‘qishga qabul qilindi.

Zero, bugungi kunda yuksak ma’naviyatli, barkamol avlod tarbiyasida XX asr o‘zbek adabiyotimizning ko‘pgina namunalari singari shoira Zulfiya lirikasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Kamdan-kam uchraydigan iste’dod sohibasi Zulfiya asarlarining estetik ahamiyati juda kattadir. Uning she’riyati xalqimizning ruhiy-ma’naviy olamini boyitishga ko‘maklashaveradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi // “Xalq so‘zi”, 2016- yil 8 –dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Каримов. И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008
5. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т.: Ўзбекистон, 2001. 9-жилд.
6. Каримов И.А. Адабиётга эътибор -маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
7. Акбаров А. Зулфия. Faafur Fulom nomidagi Adabiёт ва san'yat nashriёti, 1983.
8. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2013.
9. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А., Адабиёт ўқитиши методикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
10. Зулфия. Асарлар. Уч томлик. -Т.: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт ва san'yat nashriёti, 1983-1986 йил.
11. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. – T.: Sharq 2006 .
12. Йўлдошев К. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
13. Yo‘ldoshev Q, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik- majmua. – T.: Sharq, 2013.

14. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik- majmua. Toshkent, 2015.
15. Kattabekov A. va b. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O‘qituvchi, 1990.
17. Madayev O. Adabiyot darsliklari va milliy mafkura // Til va adabiyot ta’limi// – Т.: 1998, №2-son. B. 9-16.
18. Маматов Д. Н., Ражабова С. Й. Таълимда электрон ўқув-методик мажмуалардан фойдаланиш. // Мактаб ва ҳаёт. – Тошкент, 2012. 7–8 сон. – Б.: 30.
19. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
20. Мирқосимова М. Ўқувчиларни адабий – эстетик таҳлилга ўргатиш. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
21. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, Yangi asr avlod. 2005
22. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. –Т.: Фан, 2004.
23. Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2006
24. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. Тошкент, 2010.
25. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Т.: Тамаддун, 2010.
26. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.
27. Tosheva O. Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. 12-son.
28. To‘xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o‘quv dastur). – Т.: O‘qituvchi, 2008.
29. To‘xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. – Т.: Toshkent, 2011.

30. To‘xliyev. B. O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlod, 2006.
31. To‘xliyev B.va b. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. –T.: Cho‘lpon, 2014.
32. Тўгараклар ёшлар интелектуал салоҳиятини ошириш омили (Республика миқёсида ўтказилган илмий- амалий анжумани метериаллари асосидаги мақолалар тўплами. Тошкент, ТДПУ, 2010 йил 29-октябрь.
33. Uzviyolashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili - Adabiyot (5 – 9 sinflar). Toshkent. 2010.
34. Ҳасанова Ҳ. Мактабда Зулфия ижодини ўрганиш. Тошкент, Ўқитувчи, 1991.
35. Ўрта махсус, касб ҳунар таълимининг умумтаълим фанлари Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. – Т.: Шарқ, 2008.
36. Қамбарова С. Мустақил мутолаа ва адабий таҳлил. Тошкент, 2015.
37. Qayumov A. Shoira Zulfiya. Hayoti va ijodi haqida ocherk. O‘zadabiynashr, Toshkent, 1975.
38. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: муаммо ва ечимлар. Тошкент, 2009.
39. Qodirov B. Muammolar qulfining kaliti. // Til va adabiyot ta’limi// – Т.: 2017, 10-son.
40. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт-маънавият мустақил фикр шакллантириш омили. Тошкент, 2009.
41. Ҳусанбоева Қ. Таҳлил адабиётни англаш йўли. Тошкент, Муҳаррир, 2013.

#### **Internet ma’lumotlari:**

www.literatura.uz  
www. pedagog. uz  
www. ziyonet. uz  
www. o`zbek adabiyoti. Com  
www.til va adabiyot.uz sayti